

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

MANSUROVA MALIKANING

5220100 – o'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

“ YANGIO'ZBEKNASRIDAFANTASTIKAYO'NALISHI”

(Hojiakbar Shayxov ijodida)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

fil. fan. nomz. O.Fayzullayeva

Guliston-2016

Reja:

Kirish.

I bob. Hojiakbar Shayxov – fantast yozuvchi

- 1.1. Yozuvchi ijodida fantastik yo'nalish
- 1.2. Fantastik asarlarda g'oyaviylik va mavzular ko'lami

II bob. Fantastik asarlarda obrazlilik

- 2.1. Fantastik asarlarda o'zga sayyoraliklar obrazi
- 2.2. Fantastik asarlarda yozuvchi mahorati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyotimiz kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ijodkorlar istalgan mavzuda turfa qahramonlar shakllantirib asarlar bitmoqdalar. Hozirgi kunda badiiy adabiyotda yaqqol ko'zga tashlanib turgan yo'nalishlardan biri fantastika bo'lsa-da, biroq nasrda bu yo'nalishdagi asarlar sanoqli. Keyingi yillarda o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos uyg'onish, yangilanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, badiiy ijodda muayyan yo'nalishning vujudga kelishi tasodifan ro'y bermaydi, balki har qanday tamoyilning vujudga kelish tarixi, ko'lami, miqyosi va istiqboli bo'ladi. Badiiy adabiyotdagi tamoyillarining vujudga kelishi badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonidan boshlanadi. Shunday o'zgarishni istiqbol berdi. Albatta, yangicha tafakkurning samarasi yangicha qarashdagi ijoddir. Hozirgi zamonaviy adabiyotimizda fantastika janrining taraqqiyot tadriji, uning ifoda uslubi, o'ziga xos jihatlari tadqiqiga alohida o'rin berilmoqda. Xususan, fantastik hikoya va qissalarning yaratilishidagi omillar, asarlarning badiiy xususiyatlari va yozuvchi mahorati masalalariga muhim adabiy hodisa sifatida yondashilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda o'zbek nasrida fantastika yo'nalishining yuqoridagi jihatlarga ko'ra H. Shayxov ijodi misolida o'rganilishi **bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini** belgilaydi.

BMIning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan ko'zdan tutilgan asosiy maqsad zamonaviy o'zbek nasrida, xususan, fantastik yo'nalishda samarali ijod qilgan H. Shayxov

asarlarning badiiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- Hozirgi o'zbek nasridagi o'ziga xos tarmoq bo'lgan fantastik yo'nalishdagi asarlarga e'tibor qaratish;
- fantastik yo'nalish mohiyati va o'ziga xos jihatlarini aniqlash;
- Hojiakbar Shayxov ijodidagi fantastik qissa va hikoyalarning badiiy xususiyatlarini o'rganish;
- obraz tavsifida fantastik asarga xos xususiyatlarini tadqiq etish;
- yozuvchi uslubini o'rganish va asarlar saviyasiga baho berish;
- fantastik asarlarda badiiy detal va yozuvchi mahoratini tadqiq etishdan iborat.

Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi, ya'ni hozirgi o'zbek nasri taraqqiyotini Hojiakbar Shayxov ijodidagi fantastik yo'nalishdagi asarlar misolida ko'rib chiqish tadqiqi yuzasidan alohida yirik tadqiqot ishi yaratilmagan bo'lsa-da, lekin ayrim maqolalar yozilgani ma'lum. Ushbu taqdiqotda fantastik asarlarning janr xususiyatlari, qissa va hikoyalarning o'ziga xos kompozitsiyasi, syujeti, obrazlari va badiiyati atroflicha tadqiq etildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishi hozirgi o'zbek nasrida, xususan, fantastik yo'nalishdagi asarlar tadqiqiga

bag'ishlangan referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar va yozuvchi ijodiyoti bilan bog'liq ma'lumotlar uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tadqiqotning manbai sifatida Hojiakbar Shayxov ijodidagi “Rene jumbog'i” to'plamidagi va boshqa bir qancha qissa, hikoyalar hamda nazariy manbalardan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. HOJIAKBAR SHAYXOV – FANTAST YOZUVCHI

O'zbek fantastikasining tarixi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. O'tgan voqealar haqida hikoya qiluvchi og'zaki hikoya va qissalar xayoliy uydirmalar asosida vujudga keladi. Insoniyat uchar gilam, uchar ot, ochil dasturxon, hizr suvini orzu qilish orqali o'z istaklarini bayon qilib, baxtli hayot haqida o'ylashgan. Fantastikaning turi ko'p. Masalan, ilmiy fantastika, sarguzasht fantastika, narigi dunyo xususidagi va boshqalar. Keyingi yillarda ilmiy fantastika yo'nalishidagi asarlar salmog'I yanada ortdi. Bu hol ilmiy texnikaning rivoji bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon adabiyotida Tohir Malik, Hojiakbar Shayxov, Mahkam Mahmudov, Abror Qosimov, Baxtiyor Hoshimxo'jayev, Murod Xidir kabi fantast yozuvchilar samarali ijod etmoqdalar.

Ma'lumki, hozirgi ilmiy fantastika asosan to'rt yo'nalishda taraqqiy etmoqda. Birinchisida ijtimoiy dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan genetik shakl yetakchilik qilsa, ikkinchisida yosh avlod tasavvuriga ta'sir o'tkazish ko'zda tutiladi. Uchinchi yo'nalish uchun sirli va qiziqarli syujet muhimroq bo'lsa, to'rtinchi tur asarlar negizida salmoqli fantastik fikr yotadi.

“Fantastika” atamasi yunoncha “phatastika” so'zidan olingan bo'lib, taxayyul san'ati demakdir. Haqiqatda mavjud bo'lmagan, taxayyul kuchi bilan tasavvurdagina yaratilgan narsa-hodisalar tasviri, shunga asoslanuvchi adabiy asarlar majmuasidir. Fantastika faqat xayolot mahsuli emas, uning zahirida mavjud voqelikning izlari sezilib

turadi”¹. Zero, xayol shu mavjudlikdan kuch olgan holda parvoz qiladi. Inson tabiat sir-sinoatlarini chuqur anglab borishi barobarida fantastikani shartli ob’yektlilik, badiiy vosita sifatida tushunish barqarorlashib boradi. “Fantastikaning shakli mifologik tushunchalarni, ertaklarni tasvirlashda ko’rinadi. Inson tasavvurida hayron qoldirarli xayoliy obrazlar va hodisalar, to’qima holatlar, ajoyibotlar olami badiiy asarda voqelikka, hayot haqiqatiga qarama-qarshi qo’yib tasvirlanadi. Fantastikaning adabiyot, san’atning boshqa tur va janrlaridan farqi shuki, uning tasvir sohasi amalda mavjud bo’lgan hayot emas, balki turmush haqidagi umumiy tasavvurdan kelib chiqadigan hayotdir. Shuning uchun hamma narsa va hodisalar jiddiy o’zgargan, bo’rttirilgan, taajjublantiradigan darajada bo’ladi. Fantastikaning maqsad va vazifalari faqat inson orzusini emas, balki kelajakda kutiladigan xatardan ogoh qilish, estetik zavq berish hamdir. Fantastika ko’pincha xalq og’zaki ijodida uchraydi. Lof, latifalar va dostonlarda fantastikaning o’ta bo’rttirilgan shaklda kuzatish mumkin (“Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Manas” va boshqa asarlar). Gomerning “Iliada” dostoni, M.Servantesning “Don Kixot” asari, F.Rablening “Gargantuya yoki Pantagryuel” hajviy asari, J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, A.Dantening “Ilohiy komediya”si, M.Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari”, Gyo’tening “Faust”, M.Bulgakovning “Itiyurak” va boshqa asarlari fantastik yo’nalishning ajoyib namunalari sanaladi. K.Chukovskiyning ertaklari, A.Kaznsevning “Yonuvchi orol”,

¹ www.e-adabiyot.uz. Zebiniso Saporova “Fantastika”. Pg.1

A.Grinning “Alvon yelkanlar” asarlari, X.K.Andersenning ertaklari ham kattalarga va bolalarga mos fantastika janrida yozilgan. Hozirgi zamon chet el badiiy fantastikasining namoyondalari sifatida yaponiyalik Kabo Abe, amerikalik Ayzek Azimovni, polshalik Stanislav Lem va boshqalarni ko’rsatish mumkin. Fantastika nafaqat adabiyotni, balki faylasuflarning yirik ijodiyotini ham tashkil qiladi. Fantastikada obrazlar ko’p hollarda yaxlit mazmunda bo’lsa, yana ayrim o’rinlarda ramziy ma’no kasb etadi. Hozirgi zamon o’zbek adabiyotida T.Malikning “Hikmat afandining o’limi”, T.Hobilovning “Oyga safar”, X.To’xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o’limi”, H.Shayxovning “Rene jumbog’i” asarlari fantastika janrida yaratilgan. Fantastika badiiy adabiyotdan tashqari folklarda, falsafiy utopiyada, kino va teatrdan, tasviriy san’atda ham mubolag’ali bo’rttirish bilan aks ettiriladi. Fantastika syujet qurilmalari va ramziy ma’nolarda ifodalanar ekan, muallifning yoki bir davrning dunyoqarashi, turmush tarzi va undagi muammolar mo’jizali, g’ayritabiiy shaklda tasvirlanadi.

XIX–XX asrlarda ilmiy fantastika taraqqiy etdi. Ilmiy fantastikaning asosiy vazifasi – kelajakni bashorat qilib, badiiy ifodalashdan iborat. Asosiy tasvir usuli – fikriy eksperiment (tajriba). XX asrda ilmiy fantastikaning ravnaqi jamiyat taraqqiyotida fan va texnikaning tobora o’sib borayotganligi bilan bog’liq. Shartli ravishda ijtimoiy utopiya va “antiutopiya” janrlari, falsafiy, “maishiy”, yumoristik, “texnik” janrlar farqlanadi. Ilmiy fantastika umumadabiy va o’ziga xos tasviriy vositalardan foydalanadi.

Ilmiy fantastikaning asoschilari – F.Bekon (XVI asr), Berjerak, F.Gadvin (XVII – XVIII asrlar). XIX asrda fransuz fantasti J.Vern shuhrat topdi. Uning “Ajoyib sayohatlar” turkum romanlaridan “Kapitan Grantning bolalari”, “Yer yuzi bo’ylab 80 kunlik sayohat”, “Kapitan Gatterasning sarguzashlari” keng tarqalgan. Ingliz yozuvchisi G.Uells “Zamon mashinasi”, “Ko’zga ko’rinmas odam”, “Dunyoning kurashi” romanlarida ilmiy- fantastik vosita bilan katta ijtimoiy masalalarni o’rtaga qo’ygan. Sharq xalqlari og’zaki va yozma adabiyotida ilmiy fantastika mavzui qadim zamonlardan beri salmoqli o’rinni egallab kelgan. “Ming bir kecha” turkumiga kirgan hikoyatlarda, o’zbek fantastikertaklarida ilmiy fantastikaga xos xususiyatlar mavjud”¹. Bundan tashqari, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham ilmiy fantastika elementlarini uchratishim mumkin.

“Alisher Navoiy yashagan davrda robot, televizor, planshet, skayplar bo’lmagan, kosmosga uchilmagan. Biroq xalq orzu qilgan, faqat xalq orzusi fantastika doirasida qolgan. A.Navoiy xalq orzusini, o’z g’oyalarini ifodalashda fantastik: “tush ko’rish”, “oynada ko’rish” , “suvda ko’rish” kabi sehrli ertaklarga xos fantastik elementlar bilan bir sirada ilmiy fantastik elementlardan ham keng foydalanadi. Bular: “umrni uzaytiruvchi suyuqlik”, suv ostida, 100 kun ichida turish mumkin bo’lgan “shisha quti”, “suzuvchi shahar”, “Iskandar ko’zgusi”, “Iskandar devori”, ichi portlovchi modda bilan to’ldirilgan “shar”, “temir odam” dir. A.Navoiy asarlaridagi fantastik elementlarga xos nuqta: a)real hayot tasviri fantastika bilan o’zaro tutashib ketadi;

¹O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi . 9-jild. 214-bet.

b) U xalq orzusini amalga oshishi yo'lida bosqich vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan fantastik gipotezalarni ilgari suradi;

v) A.Navoiy asarlaridagi fantastik elementlar bugungi kunda robot, batiskaf, suv osti kemasi, eskalator ko'rinishida amalga oshgan va fantastika janrini, xususan o'zbek fantastikasini yuzaga kelishida poydevor vazifasini o'taydi"¹.

Hojiakbar Shayxov fantast yozuvchi, sehrli adabiy janr ijodkori. U Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon viloyatidagi Chuguchak shahrida 1945-yilning 25-martida tug'ilgan. O'zbek ilmiy-badiiy fantastikasining asoschilaridan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1997). Ota-bobolari asli toshkentlik bo'lib, Sharqiy Turkistonga ko'chib ketishgan va 1955-yil vataniga qaytishgan. O'rta maktabni bitirgach, 1964–1967-yillarda sobiq Sovet Armeiyasi saflarida xizmat qilgan. 1967–1971-yillarda Toshkent politexnika oliy bilimohida tahsil ko'rgan. So'ngra, 1971–1978-yillar mobaynida elektr tarmoqlari idoralarida, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Elektronika institutida ishlagan. 1978-yilda "Yosh gvardiya" nashriyotida bo'lim boshlig'i, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi birinchi kotibining ijodiy ishlar bo'yicha muovini bo'lib xizmat qilgan. "Sirli olam" oynomasiva uning ilovasi bo'lmish "Qalb ko'zi" ro'znomasining bosh muharriri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi taftish hay'atining a'zosi bo'lgan. U yozuvchi sifatida 70-yillar boshida adabiyotga kirib kelgan. Shu vaqtgacha uning o'ttizga yaqin kitoblari chop etilgan. Jumladan, "7-

¹www. ziyonet. uz. Ra'no Ibrohimova Filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy asarlarida ilmiy fantastik elementlar. Pg1.

SER”–ilmiy-fantastik hikoya va qissalari (1972, hamkorlikda yozilgan), “Zalvorli odimlar” (1977), “Yettinchi operatsiya” (1979), “Rene jumbog’i – ko’lanka ” (1980), “Olmos jilosi” (1983), “So’nggi ajdarning halokati” (1985), “Hayotbaxsh xayollar” (1985), “Ajdodlar xotirasi” (1986), “Yonar daryo” (1986), “Maktab sahnasi” (1988), “Sehrli qiz” (1989), “Telba dunyo” –roman (1990), “Ko’z” – qissa (1986), “Tutash olamlar” (1996), “Jodugarning eri” (1999), “Ikki jahon ovorasi” (2001) kabi asarlari kitobxonlarning sevimli asarlariga aylanib qolgan. Shuningdek, u “Umid sayyorasi”, “Uyg’ongan vijdon”, “Olis sayyorada”, “Nishon”, “Olovdan chiqqan odam”, “Darxon qo’shig’i” kabi o’nlab hikoyalar muallifidir. Publitsistik asarlar ham yozgan (“Fan fidoyisi”, 1987; “Zamin shaydosi”, 1990).

Hojiakbar Shayxov mohir tarjimon sifatida o’nlab qardosh va chet el adiblari asarlarini o’zbek tiliga o’g’irgan. Bundan tashqari, u munaqqid, olim va adabiyotshunos sifatida yigirmadan ortiq maqolalar yaratgan. Ular orasida fantastika, folklorshunoslik va mifologiyaga oid maqolalari e’tiborlidir.

Yozuvchi 2002-yil 27-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

Professor Ozod Sharafiddinovning Hojiakbar Shayxov ijodi haqidagi fikr mulohazalari bilan tanishib o’tamiz:

“Kitobxonlar ommasiga o’zining hikoyalari, qissalari, romanlari bilan ko’pdan beri tanilib qolgan Hojiakbar Shayxovni o’zbek ilmiy-fantastik adabiyotining qaldirg’ochlaridan biri deb atasa bo’ladi. Albatta, fantastika Hojiakbar Shayxov dunyoga kelmasdan avval ham bor edi. “Fantastika” deganini bir so’z bilan “xayolot” deb atash

mumkin. “Xayolot” esa inson tafakkurining mangu hamrohi. Adabiyot, qolaversa, ijod fantastika bilan, xayolot bilan birga tug’iladi va u bilan qadam-baqadam, hamnafas taraqqiy etadi. Bundan necha o’n ming yillar avval yaratilgan, ibtidoiy ajdodlarimiz g’orlarning devorlariga qing’ir-qiyshiq qilib chizib ketgan rasmlarda ham fantastika bor. Shunisi ham borki, bu hodisa faqat o’zbeklarga xos emas. Mashhur hind eposlari “Maxabxarata”, “Ramayana”, “Shukasaptati”, “Kalina va Dimna”, arab ertaklari “Ming bir kecha”, bosha xalqlarning rivoyat va afsonalari. Yozma adabiyotda ham shundoq – Firdavsiyning o’lmas “Shohnoma” sida fantastika qanchalik kuchli bo’lsa, Alisher Navoiy dostonlarida ham shunchalik keng o’rin tutadi. Ovro’pa adabiyotida Gulliverlar, Myunxgauzenlar, Faustlar va boshqa yana o’nlab, yuzlab obrazlar, buyuk Gogolning ijodi, rus folklori fantastikaning juda qadimiy va barqaror hodisa ekanini yaqqol isbot qilib turibdi. Xullas, adabiyot fantastikasiz, xayolotsiz bir qadam ham olg’a siljiyolmaydi. Xo’p, shundoq ekan, nega endi XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan bir yozuvchini o’zbek ilmiy fantastikasini boshlab bergan qaldirg’ochlardan biri deb atashning boisi shundaki, avvallari fantastika ijodning bir unsuri sifatida ko’ringan, muayyan davrda esa u ijodning to’laqonli, mustaqil bir bo’lagi, o’z mavzu doirasiga, o’z tasvir vositalariga, o’z poetikasiga ega bo’lgan alohida janr sifatida shakllana boshlaydi. Bu jarayon, ayniqsa, XX asrda juda kuchayib ketdi. Negaki, bu asrga kelib, ilmfanning jamiyat hayotidagi o’rni beqiyos kengaydi. Fanning hamma sohalarida aql bovar qilmaydigan olamshumul kashfiyotlar yuzaga keldi. Ular jamiyat hayotiga juda katta ta’sir ko’rsatdi, odamlarning

turmush tarzini o'zgartiribgina qolmay, tafakkurini ham yangi izga solib yubordi. Ilmiy kashfiyotlar mislsiz qulayliklar tug'dirishi bilan birga, tahlikali xavf-xatarlar ham olib keldi. Natijada insoniyat yangi-yangi chigal muammolarga ro'para kelib, ularni hal qilolmay, boshi berk ko'chalarga kirib qola boshladi. Bularning bari jamiyatda ilmga, uning kashfiyotlariga qiziqishni kuchaytirdi, odamlar faqat bugungi kunga emas, ertangi kunga ham, o'z taqdirilariga ham tez-tez nazar tashlay boshladilar. Bularning bari butun jahon miqyosida ilmiy fantastikaga mislsiz qiziqishni vujudga keltirdi. Shu tariqa, XX asr o'rtalariga kelganda, butun dunyoda fantastik adabiyot gurillab avj ola boshladi. Shunisi kishini mamnun qiladiki, o'zbek adabiyoti ham bu jarayondan chetda qolgani yo'q. Biroz kechikib bo'lsa-da, ya'ni 60-yillarning oxiri va 70-yillarning ibtidosidan boshlab, ilmiy-fantastika janri o'zbek adabiyotida ham o'z qonuniyatlariga, o'z xususiyatlariga ega bo'lgan mutlaqo mustaqil janr sifatida shakllana boshladi. Boshqacha aytganda, xuddi shu kezlarda o'zbek adabiyotida ilmiy-fantastika janrining bahori boshlangan edi. Shu bahorni yetaklab kelgan qaldirg'ochlardan biri Hojiakbar Shayxov bo'ldi. 1972-yilda yosh yozuvchining "7-SER" degan kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobning nomi nechukdir badiiy asar nomiga o'xshamas, ko'proq mexanika yohud fizikaga mansub kitobning nomiga o'xshab ketardi. Biroq uning o'ta "ilmiy" nomidan cho'chimay, qo'lga olib varaqlaganlar kitobdan hikoyalar o'rin olganini ko'rib hayron bo'lishdi. Hikoyalarni o'qiganlar esa ularning o'zbek adabiyotida butunlay yangi hodisa ekaniga, ilm muammolari haqida badiiy shaklda mulohaza yurutuvchi, ularni badiiy vositalar orqali gavdalantirishga

urinovchi asarlar ekaniga ishonch hosil qilishdi. Oradan ko'p o'tmay, muallifning "Ajib yulduzlar" degan yangi kitobi chop etildi. Bu kitob ham fantastik hikoyalar va ilmiy-badiiy ocherklardan tarkib topgan bo'lib, yosh adibning ilmiy fantastikaga qiziqishi o'tkinchi havas emas, balki butun umrga ketadigan astoydil mayl ekanidan guvohlik berardi. Shuningdek, kitobga kirgan asarlar Hojiakbar Shayxovning qalami asardan asarga o'tkirlashib borayotganini, yozuvchi o'z ustida astoydil ishlab, jahon fantastikasining ijodiy tajribalarini o'zlashtirib borayotganini ko'rsatardi. Shundan keyin Hojiakbarning o'z kitobxonlari paydo bo'la boshladi. Ular adib asarlarini qidirib topib o'qish bilan birga, uning shaxsiyatiga, qanday hayot yo'lini bosib o'tganiga, e'tiqodlariga, ijodiy niyatlariga ham qiziqqa boshlashdi. Shunda ma'lum bo'ldiki, Hojiakbar hali yosh bo'lsa-da, hayotda ancha-muncha jiddiy sinovlarga ro'para kelgan, turli-tuman qiyinchiliklarni ko'rib pishigan, hayot qozonida ozmi-ko'pmi qaynab, tajriba orttirgan yigit ekan.

Hojiakbar Shayxov asarlarining o'ziga xosligi shundaki, uning asarlarida hozirgi fantastik adabiyotninghamma zarur belgilari mavjud, ya'ni ulardagi voqealar Yerdagina emas, butun Koinotda, qo'shni Galaktikalarda sodir bo'ladi. Hojiakbar Shayxovning qahramonlari turfa-tuman robotlar, o'zga sayyoraliklar, odamlarga o'xshagan yoxud o'xshamagan maxluqotlar. Biroq voqealar silsilasi qanchalik g'ayritabiiy kechmasin, qahramonlar qanchalik g'aroyib bo'lmasin, ular oxir-oqibatda qay bir tomonlari bilan Yerdagi odamlarning bugungi hayotiga, bugungi tashvishlariga bog'lanib ketadi. Adib biri-biridan qiziq, maroqli sarguzashtlar to'qib, kitobxon xayolini band qilishni emas, balki

insonning mangu muammolarini o'rtaga tashlab, inson vijdoniga murojaat qilib, uni g'aflat uyqusidan uyg'onish va barkamolroq qilishni o'yladi. Shuning uchun Hojiakbar Shayxov asarlarining zamirida inson hayotining ma'nosi, e'tiqodi, halollik, poklik masalalari yotadi. Adib ilmy-fantastik shakllarda ezgulik va yovuzlik, to'g'rilik va egrilik, bag'rikenglik va xudbinlik o'rtasidagi kurashni ko'rsatadi. Xuddi shu jihatlari bilan Hojiakbar Shayxovning asarlari adabiyotga, san'at hodisasiga aylanadi va kitobxonlarning yuragini zabt etadi"¹.

Adibning "Rene jumbog'i" kitobi ikki fantastik hikoya va ikki ilmiy-fantastik qissadan iborat. Hikoyalaridan biri "Do'stimning kashfiyoti" deya nomlanadi. Hojiakbar Shayxov hikoya qahramonini portretini quyidagicha beradi: "Do'stinga tikilib qarasangiz, uning qomatdor, kelishgan bola emasligiga o'sha zahoti amin bo'lasiz. Qorachadan kelgan ushoq yuzi doimo tund va g'amginday ko'rinadi. Miyasiga biror olijanob fikr kelgandagina ko'zlari ma'no kasb etadi, ya'ni o'tdek chaqnab ketadi yohud allanechuk hayrat va ishonch ifodasi-la porlab katta ochiladi. Uyqusizlikdanmi yoki zahmatkashlikdanmi, osilib tushgan vazmin qovoqlari esa, ko'pincha qizarib, shishib ketganday tuyuladi kishiga"². Barchamizga ma'lumki, yosh bolalar doim rost gapirishadi. Do'stini ta'riflayotgan bolakay ham uning "qomatdor va kelishgan emas"ligini aytadi. Bu orqali uning bolalarga xos xususiyati yoritilgan. Do'stining doimo g'amgin bo'lib yurishi, qovoqlarining ko'pincha qizarib va shishib ketishining sababiuning biror muhim ish bilan bandligini, hatto uyqusidan kechib bo'lsa-da shu ishni

¹Rene jumbog'i. 123-126 betlar

²Rene jumbog'i. 19-bet

barajayotganligini bildiradi. U matematika va fizika fanlariga juda qiziqadi. Bu qobiliyati bilan o'qituvchilarini ham hayratga soladi, biroq onasida esa tashvish tuyg'usini ham paydo qiladi: "Har kuni ertalab onasi uni turli formulalar yozilgan qog'ozlarga to'lib ketgan stolga bosh qo'ygan holda uxlab yotganini ko'rib, o'g'liga ham zo'r faxrlanish, ham katta tashvish tuyg'usi bilan termilib qolardi..."¹ Bolaning g'amgin bo'lib yurishiga sabab, otasining yetti yil avval oilasini tashlab ketganligidir. Do'sti otasini naqadar yaxshi ko'rishini quyidagicha tasvirlaydi: "Ota ... Uni naqadar chuqur muhabbat bilan sevardi mening do'stim. Otasini deb o'zini o'tga tashlashga tayyor edi. Jonidan ham aziz ko'rardi. Ammo, afsus, shunday pokiza muhabbatni u oqlamadi, nontepkilik qildi"². Otasiga bo'lgan muhabbati uning mashina yaratishiga turtki bo'ldi. Hikoya qahramoni ajoyib mashina ixtiro qiladi va unga "Yarashtirish mashinasi" deya nom qo'ygan edi. Bu mashinani yasash uchun yetti yil sarflaydi. Ixtiro hikoya voqealarini harakatlantiruvchifantastik detal vazifasini o'taydi: "Do'stimning darsxonasiga kirib borganimiz hamono xonaning o'rtasida cho'yan pechkasimon g'alati bir apparat diqqat-e'tiborimni o'ziga tortdi. Apparat ostidan chiqarilgan shnur elektrovilka yordamida bevosita rezetkaga ulangan edi. Ikki yon tomonidan mis simlar o'tgan bo'lib, ular hech narsa bilan birlashtirilmagan, havoda muallaq turardi. Simlarning uchlari esa, chiroyli ko'kimtir xlorvinil qog'ozi bilan puxta qilib o'rab qo'yilgandi. Apparatning ustki qismi tekis bo'lib, unga aylana shaklida tartib bilan kichkina qora tugmachalar joylashtirilgan va har bir

¹O'sha manba 20-bet

²Rene jumbog'i.23-bet.

tugmacha ustiga maxsus harflar bilan belgi qo'yib chiqilgan edi. Umuman, apparatning ko'rinishi ixcham qopqoqli silindrni eslatardi"¹. Ushbu apparatning sinovini hikoyani bayon qilayotgan bolada sinab ko'radi va muvaffaqiyatli chiqadi. "Yarashtirish mashinasi" nima maqsadda yaratilganligini personaj nutqi orqali bilib olishimiz mumkin: "Men bu apparat yordamida otamni onam bilan yarashtirmoqchiman, toki, oilamizda o'sha dastlabki osoyishta, go'zal hayot yana hukm sursin! Bu mening yetti yildan beri yuragimga bir zum ham tinchlik, halovat bermay kelayotgan birdan-bir orzum!.."Personaj nutqi badiiy asar tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi."Qahramonning nutqi orqali uning qanday odam ekanligini payqab olish mumkin.Har bir qahramonning tili o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.Yozuvchi personaj nutqini uning asarda tasvirlangan voqealardagi o'rniga, individual xarakter-xususiyatlariga qarab ishlab chiqaradi.Asar qahramonining tabiatiga qarab, yozuvchi uning nutq tuzilishi, so'z boyligi boshqa til xususiyatlarini ochadi"².Yuqoridagi bolakayning nutqiga e'tibor beradigan bo'lsak, ota-onasining bir oila bo'lib yashashlarini sog'inganligini, avvalgi baxtli kunlarini qaytib kelishini intizorlik bilan kutayotganligini bilishimiz mumkin. Shu orzusi yo'lida yetti yil mehnat qilib, "Yarashtiruv mashinasi"ni ixtiro qiladi.Biroq bu mashinaning yaratilganligini eshitgan onasining portret tasviriga adib alohida e'tibor qaratadi: "Ostonada turgan ayolning so'lg'in yuzi dokadek bo'zardi, ko'zlarida yosh tomchilari miltilladi. Qoramag'iz chehrasida achinish,

¹O'sha manba. 24-bet

²T.Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. "O'zbekiston". 2002-yil.

mujmal pushaymon ifodalari aks etdi”¹. Bu orqali biz bu kashfiyotning onani quvontirmaganini “yuzining dokadek bo’zarganidan” ham bilishimiz mumkin. Onasi otasi bilan o’rtalarida muhabbat yo’qligi sababli ajralib ketishganini ko’zlariga yosh olib aytadi. Muhabbat yo’q joyda hech qanday “Yarashtirish mashinasi” ham ish bermasligini tushunib yetgan bolakay onasini qattiq ranjitganidan pushaymon bo’ladi: “Kechiring, oyijon, deydi-da shoshilib borib, elektroshtepseldan apparatga ulangan shnurni sug’urib olib tashladi. Uning oyog’i tegib ketdi shekilli, “yarashtirish mashinasi” taraqlab dumalab tushdi”². Hikoyadan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, mehr-muhabbatni hech qanday mashina yordamida qozonib bo’lmaydi.

Yana bir hikoya “Olovdan chiqqan odam” deya nomlanadi. “Asar sarlavhasi – badiiy asar arxitektonikasida tashkil qiluvchilik rolini o’ynaydi. Ko’p hollarda asar sarlavhasi uning mazmuni bilan uzviy bog’liq bo’ladi”³. Hikoyanining sarlavhasiga to’xtaladigan bo’lsak, bosh qahramon Nurbekning g’ayrioddiy harakatlari bilan bog’liqdir. Bunga asarni tahlil qilish jarayonida yanada oydinlik kiritiladi. Asar peyzaj tasviri bilan boshlanadi: “Qo’hna qipchoq dashtlarini bahor tanqis gullari bilan bezagan. Qontalash rangdagi ulkan quyosh barkashi choratrofqa ayovsiz tig’ uradi. Uncha katta bo’lmagan qum tepaliklar, barxanlar orasida yangi chiqqan to’rtta o’tov qad rostlagan”⁴. Bu tasvir orqali obrazlar ruhiyatining ko’tarinki ekanligini bilishimiz mumkin. Biroq bu holat voqealar rivojidadeskari holatga aylanadi.

¹Rene jumbog’i. 27-bet

²H.Shayxov. “Rene jumbog’i”. Toshkent. 2004-yil.28-bet.

³T.Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari”.Toshkent. 2002-yil.

⁴www.ziyo.uz. Olovdan chiqqan odam.Pg 1.

O'tovlarning atrofida to'qson ikki boqli o'zbek urug'laridan biri tinch va osuda hayot kechirishlari tasvirlanadi. Asarda qabila oqsoqoli obrazini uchratamiz. Uning portret tasviri quyidagicha aks ettirilgan: "... boshiga oq salla o'ragan, qorday oppoq oqsoqollari ko'ksiga tushgan nuroniy mo'ysafid alohida ajralib turadi. U yelkasiga echki terisidan tikilgan jigarrang chakmon tashlab olgan, vaqti-vaqti bilan oldida turgan chilim nilini og'ziga solib, xo'rillatib ichiga tortar ekan, qabiladoshlariga salobat bilan allanimalarni uqtiradi"¹. Bundan tashqari, qabilada ko'rkam gavdali, endigina mo'ylovi sabza urgan jingalak sochli bir yigit ham bor. Shu yigit bilan bog'liq bo'lgan voqealarda fantastik tasvirning namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. U otasi va akalari bilan Qirq Qaroqchi dashtiga jayron oviga chiqadi, yigit esa ulardan ajralib sahroyi-biyobonda adashib qoladi. Temirtirnoq nomli iti va saman oti bilan dashtni bir necha kun kezib holdan toygandan keyin, saksovulzorda dam olishadi. Ertalab otning kishnashi va itning akillashidan uyg'onib ketadi. Ularning har ikkisi bo'rilar hujumidan halok bo'layotgan edilar. Bu manzarani kuzatib turgan bola qo'rqqanidan miyasi karaxt bo'lib qoladi: "Birdan tanasidagi yoqimli og'riq uqubatga aylandi, bamisoli qandaydir dasht chumolilari badanining har bir nuqtasini ayovsiz kemirayotganday, u o'z tanasini his qilmay qo'ydi. Ayni vaqtda ko'krak va yelkalari, bilak va sonlarining terisi o'rnida baliqning po'stiga o'xshash shilimshiq va qattiq po'stloq hosil bo'la boshladi. Go'yo tanasining teri qismi borgan sayin muzlab borayotganday. Bu holdan bola xavotirlanish o'rniga, aksincha, negadir

¹O'sha manba. Pg1.

xotirjam tortdi. Endi u o‘z o‘ljalarini hafsala va ishtaha bilan g‘ajiyotgan qonxo‘r yirtqichlarga horg‘in va bepisand tikilib yotardi”¹. Keyin bo‘rilar bolaga yaqinlashishadi, lekin uning tanasi baliqlarga xos shilimshiq va qattiq po‘stloq bilan qoplanib, badbo‘y hid taratardi. Buni ko‘rgan bo‘rilar ortga chekinadilar va g‘oyib bo‘ladilar. Bundan tashqari, bolani kalxatlar-u yo‘lbarslar, dasht ilonlari unga zahrini sochmoqchi bo‘ladilar, lekin tishlari o‘tmaydi. Bola yetti kundan so‘ng ko‘zlarini ochadi, o‘rnidan turmoqchi bo‘lganida butun badani baliq terisiga o‘xshagan silliq va qattiq, taram-taram po‘stloq bilan qoplanganini sezadi. Qorong‘u kecha bo‘lishiga qaramay, hamma yoqni kunduzdagiday ko‘ra boshlaydi. Ko‘p o‘tmay baliqsimon po‘stlog‘i to‘kilib, uning tanasi oltinsimon zarrin shu‘la tarata boshlaydi. Ancha yo‘l yurgandan keyin yaqinlari uni topishadi va kechalari o‘zidan nur tarata boshlagani uchun uni Nurbek deb atay boshlaydilar. Yuqoridagi voqeadan so‘ng unda g‘ayrioddiy xususiyatlar namoyon bo‘la boshlaydi: “U yonib turgan olov ustida bemalol yura olar, ayni vaqtda tanasi har qanday sovuqqa ham dosh berardi. Bundan tashqari, kechalari hamma narsalarni xuddi kunduzgiday ko‘ra oladi, har qanday odam yoki hayvonning qayerida qanday kasallik borligini ham bir ko‘rishda biladi”². Bu qabilaga mo‘g‘ullar hujum qiladilar va barchani qirg‘inbarot qilishga kirishadilar. Oxiri yaradorlar-u qolgan-qutgan yoshlarni va qariqartaglarni o‘tovga to‘plab, o‘t qo‘yishadi. Nurbekni shu o‘tga irg‘itadilar, biroq u o‘tovdan otilib chiqib, otga minib ketadi. Aynan uning olovdan sog‘-salomat chiqishi tasvirida fanstastik ruh ustunlik

¹www.ziyo.uz. Hojiakbar Shayxov. Olovdan chiqqan odam. Pg 2.

²www.ziyo.uz. Hojiakbar Shayxov. Olovdan chiqqan odam. Pg 3.

qiladi, deyishimiz mumkin. Bu voqeadan so'ng asarda yana peyzaj tasviri beriladi. Biroq bu peyzaj tasviri bilan asar boshlanmasidagi tasvir o'rtasida keskin farq bor: "Quyoshning cho'g'simon ulkan barkashi ufqqa cho'kib ketganiga ancha bo'lgan, ufq qontalash rangda jilvalanar, qipchoq dashtidagi ko'z ko'rib quloq eshitmagan bu qirg'inbarot yovuzlikning guvohi bo'lmaslik uchun go'yo tog'lar ham g'ira-shira shom pardasini yuziga tortishga urinayotgandek edi"¹. Adib halok bo'lgan qabilaning ayanchli taqdirini yanada yorqinroq tasvirlash uchun peyzaj tasviridan mohirona foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Nurbek yigirma choqli chavandozlar bilan qaytib keladi. Oqsoqol obraziga zulm va yovuzlikka qarshi kurashish g'oyalari singdirilgan. Biroq u dushmanlarni qatl etish o'rniga, ularning qurollarini bir joyga yig'dirib yoqib yuboradi: "Lahza o'tmay sahroda yana bir gulxan paydo bo'ldi. Hammaning diqqat-e'tibori o't ichida qolgan qurollar uyumida. Bu odamzodning qirg'inbarot urush va bosqinchiliklarga qarshi ilk isyoni edi. Bu alanga insonni tinch hayotga chorlayotganday gurillar, yolqin sochar, javlon urar edi"². Qabila oqsoqoli asarda nihoyatda aqlli va mulohazali shaxs sifatida tasvirlanadi. U hatto dushmanlarni ham ozod qilib yuboradi. Uning ko'rsatmasiga quloq solmagan Nurbekka qarata so'zlagan nutqi uning obrazidagi o'ziga xoslikni yanada kengroq aks ettirgan deyishimiz mumkin:

“ —Yuzimizni yerga qaratding, — dedi oqsoqol birdan ovozi qaltirab. —Endi... to'rt tomoning qibla...

— Gunohim nima, bobojon? Axir, ulardan kuyib kul bo'lgan onam, aka-

¹O'sha manba.Pg 4.

²www.ziyo.uz. Hojiakbar Shayxov. Olovdan chiqqan odam.Pg 6.

ukalarim, opa-singillarimning xunini oldim-ku!

— Gunohing — qotilliging... — oqsoqol - mung bilan yerga qaradi. — Yovuzlikni yovuzlik bilan yengish mumkin emas ekan!..”¹

Hikoyadagi Nurbek obrazini yaratishda adib ko'plab fantastik unsurlardan foydalangan. U har taraflama boshqalardan ustun bo'lsa-da, ma'naviy-axloqiy jihatdan orqada ekanligi, qabila oqsoqolining gapiga kirmaganligini va shu tufayli qabilasidan haydalganligini hikoya oxirida bilib oldik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, hikoyada yovuzlikni hech qachon yovuzlik bilan yengib bo'lmasligi fantastik talqinda tasvirlangan.

H.Shayxovning “Jadugarning eri” qissasini E.Usmonovning “Yalmog'iz” hikoyasi bilan qiyoslab tahlil qilamiz. Ularning har ikkalasida bir-biriga o'xshash bo'lgan rahbar ayol obrazlarini uchratamiz. H.Shayxov qissasidagi bosh qahramonlardan biri endigina rahbarlik lavozimiga tayinlangan Ayra Gabdullina portret chizgilari orqali asarga kirib keladi: „Yuzi sutga chayilgandek oppoq, qora qoshlari qaldirg'och qanotlaridek bir tekis, yelkalari osha yotuvchi olovrang sochlari tilladek tovlanardi. Faqat katta-katta moviy ko'zlarigina kishiga teshib yuborgudek sovuq boqardi”². Portret obraz yaratishda muhim ahamiyatga ega. “Portret – badiiy asarda kishilarning tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi va hokazolar tasviri. Portret atamasi, odatda, ikki ma'noda, ya'ni qahramonning tashqi ko'rinishi va qahramonning individual – psixologik qiyofasi qo'llaniladi. San'atkor yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini chizish orqali ham uning

¹O'sha manba.Pg 6.

²H.Shayxov .Jodugarning eri.www. ziyouz.com 66-bet

ruhiyatiga kirishga intiladi. Xususan, portret unsurlari ko'z, yuz, ko'z yoshi va boshqalar san'atkor uchun qahramon ruhiy dunyosini ochuvchi kalit bo'lib xizmat qiladi”¹.

E.Usmonovning “Yalmog'iz” hikoyasining bosh qahramoni esa “Dilbar” modalar atelyesining boshlig'i Muhabbat Xo'yavevna bo'lsa ham, hamma uni “xonim” deb atardi. Uning ta'rifi: “ Qaddi-qomati nihoyatda kelishgan, jingalakka moyil zulukdek sochlari tim qora, g'uncha lablarida allanechuk kibrga va kinoyaga o'xshash bir ifoda muhrlanib qolgan, uzun-uzun kipriklari ostidagi shahlo ko'zlaridahamisha qandaydir sirli bir o't yolqinlanib turadigan bu ofatijon ayol haqida yana har xil gap so'zlar yurardi”².

Yuqoridagi har ikkala portret chizgilaridan bu ayollarning go'zalligi bilan bir qatorda, kibrli va manman ekanligini ham sezishimiz mumkin. Ular portretidagi ko'zlar tasviriga alohida e'tibor berilgan. Yuqoridagi Ayra Gabdullinaning ko'zlari “kishiga teshib yuborgudek boqardi” deyilsa, “xonim”niki esa “shahlo ko'zlarida hamisha qandaydir sirli bir o't yolqinlanib turadi”, deya tasvirlanadi.

Ikkala obraz o'rtasidagi yana bir o'xshashli, ularning o'z ishiga bo'lgan munosabatida seziladi. “Xonim” obrazida ko'raylik: “Ishlab chiqarish-u buyurtmalar, rejalar-u majburiyatlar masalasida “xonim” o'ta talabchan, qattiqqo'l va shafqatsiz rahbar edi”³.

Ayra Gabdullinaning nutqi orqali uning ham talabchan va qattiqqo'l ekanligini bilib olamiz: “Gap bunday, o'rtoq: men bu yerga markazdan

¹T.Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” .T., 2002-yil. 178- bet.

²www. ziyouz.com. H.Shayxov . Jodugarning eri. 28-bet

³E.Usmonov. Marhum kech soat sakkizda keladi.29-bet.

juda katta vakolatlar bilan kelganman. Ikki marta gapirishni yoqtirmayman. Aytgan gapim hamma xodimlar, ayniqsa, sen uchun qonun bo'lishi kerak. Haydovchi – har qanday rahbar, ayniqsa, menday oliy rahbarning o'ng qo'li hisoblanadi. Shu bois har bir qadamingni o'ylab bosishingga to'g'ri keladi, qittak izmimdan chiqsang ham, ayab o'tirmayman, po'stingga somon tiqaman”¹.

“Yozuvchilar personajlar nutqi orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini, ruhiy dunyolarini, yashash tarzlarini, xarakterlarining mantig'ini, muayyan sharoit uchun mushtarak tomonlarini ochib beradilar. Shunga ko'ra, personajlar nutqi qahramonlarni alohidalashtirish vositasi hisoblanadi”². Darhaqiqat, yuqoridagi birgina nutq orqali bu obrazning qo'l ostidagi xodimlariga nihoyatda qattiqqo'lligini, shu bilan birga haydovchisini ham ayab o'tirmasligini “po'stingga somon tiqaman” jumlasini yanada tasdiqlaydi. Har ikkala obraz o'rtasidagi o'xshash jihatlardan yana biri qo'l ostida ishlaydiganlarga bemehrliligi, zahrini sochishi va bundan lazzatlanishi: “Ayra Gabdullina qo'l ostida ishlaydiganlarga hammavaqt zahrini sochar, ularning dilini og'ritish va ranjitishdan chinakam lazzat topar edi, tadbirkor, ishbilarmon, omadi chopgan odamlarni jini sevmas, ayniqsa, taqvodor, xudojo'y odamlarni ko'rgani ko'zi yo'q edi”³. “Xonim” obrazida esa: “... ba'zan ishga kechikib kelib qoladigan yo qo'lidagi buyurtmani bilib-bilmay cho'zib yurgan qiz-juvonlarni yakka-yakka xonasiga chaqirtirar va o'sha chevarlar “xonim” ning kabinetidan

¹O'sha manba. 66- bet.

²E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish.T., 2003-yil.119-bet.

³ziyouz.com. H.Shayxov.Jodugarning eri. 67-bet

ranglari quv o'chgan, ko'zlari to'la yosh, nozik yelkalari, lablari titragan holda chiqib kelishardi. Ichkarida nima gap-so'z bo'lganini hech qachon bir-birlariga aytishmas, agar dugonalari hol-joniga qo'ymay so'rayversa, ho'ngrab yig'lab yuborishardi"¹.

Har ikki fantastik asarlarda rahbar ayollarning havdovchilari obrazini uchratamiz. Biroq ular bir-birlaridan keskin farq qiladilar. Ayra obrazida jodugarlik alomatlarining namoyon bo'lishi haydovchi nutqida aks etgan: "Uning chinakam jodugarligi ayni shu kunlarda namoyon bo'la boshladi. Masalan, u qon so'ruvchi (vampir)ga aylanib, ustamonlik va xushvaqtlik bilan mening ruhiy quvvatimni so'rib oladigan odat chiqardi. Uning eng oddiy jodugarlik xislatlaridan biri ro'molcham yordamida uyda yo'qolgan narsalarni izlab topish edi "². Qissadagi yana bir holat buni yanada yorqinroq tasvirlashga xizmat qilgan: "...Xotinimning afti-basharasi tishlari irjayib chiqqan qora bo'rining siyog'iga aylana boshladi. U favqulodda o'zini ustimga otib, yoqalarimni yirtib, ko'ksimga yopishdi. Yo falak, u gardanimga tishlarini botirib, qonimni so'ra boshlagandi"³. Jodugarlik alomatlari Ayraning butun ruhi va jismini egallab olganligini, yolg'iz o'zi xalos bo'la olmayotganligini bilish, uning turmush o'rtog'i bilan bog'liq voqeliklarda namoyon bo'ladi. Qissada "So'gal ota" ziyoratgohi tilga olinadi: "U yerda sehrli bir quduq bo'lib, uning xosiyati shundaki, yoniga pok niyatli, yaxshi odamlar kelib chelak tashlasa, suv chiqadi. Yovuz niyatli nopok odamlarga esa bir qultum ham nasib etmaydi.

¹E. Usmonov. Marhum kevh soat sakkizda keladi.30-bet.

²www. ziyouz.com. H.Shayxov. Jodugarning eri.69-bet

³www. ziyouz.com. H.Shayxov.Jodugarning eri. 78-bet

Odamlar ana shu suvda yuvilib, har xil dardlardan, issiq- sovuq va yovuz afsunlardan forig' bo'lishadi"¹. Robert Nazarovich turmush o'rtog'i Ayra xonimni o'sha ziyoratgohga olib boradi, biroq u tashlagan chelakka bir tomchi ham suv chiqmaydi. Robert Nazarovichning chelagi esa to'lib chiqadi va xotinini o'sha suv bilan yuvintiradi. Keyingi holati: "... butkul o'zgacha odamga aylanib chiqadi. O'shanga qadar og'ziga talqon solib olganday bir og'iz ham gapirmagan, aslida esa u dilbar, hazilkash, so'zamol va ko'ngilchan ekan"². "Yalmog'iz" hikoyasida esa butkul boshqa holatni ko'rishimiz mumkin: Kunlardan bir kun "Modalar atelyesi"ga Husniya ismli sho'x-shaddod bir kelinchak ishga keladi va "xonim"ga bosh egishni xohlamay, u bilan qattiq tortishib qoladi. Bu voqeadan so'ng "xonim" yuragini changallab yiqiladi. Shifoxonadan uyga qaytgach, odamgarchilik yuzasidan 3-4 ta ayol borib ko'rishga qaror qiladilar, biroq "xonim"ni butkul boshqa qiyofada ko'radilar: "Qarshilarida sochlari oqarib, zahil yuzini qat-qat ajin bosgan, badburush bir kampir turar, faqat uning horg'in va ma'yus, ammo hamon jozibali shahlo ko'zlaridagina qandaydir ojizgina bir nur yiltirab turardi"³. Bu orqali "xonim"ning aslida yalmog'iz kampir ekanligini, boshqalarning ruhiy quvvatini o'g'irlash orqali yosh va go'zal bo'lib yurganligini nazarda tutmoqchi bo'ladi.

Xulosa shaklida shuni aytish mumkinki, har ikkala asardagi rahbar ayol obrazi, bugungi kunda ham uchratish mumkin bo'lgan ayrim insonlarning timsoli. Bu insonlar atrofida qilarning iztirobidan

¹O'sha manba.80-bet.

²O'sha manba.81-bet.

³E.Usmonov. Marhum kech soat sakkizda keladi.34-bet.

rohatlanishi, hech kimning dard-u hasratini eshitishni xohlamasligi bilan, insoniylik burchlarini unutib, „temir odamlar“ ga aylanganliklari bilan jamiyatda ajralib turadilar. Ularning inson ruhiyatiga ozor berib lazzatlanishi bilan yalmog'izga qiyoslash mumkin. Hojiakbar Shayxovning “Jodugarning eri” qissasidagi obraz asar boshida jodugar sifatida kitobxonda taassurot qoldirsa, oxiriga kelib, uning boshqa insonga aylanganligi yozuvchining ezgulik hamisha g'olib aqidasiga ishonchini dalolatlaydi. Biroq “Yalmog'iz” hikoyasidagi ayol go'zal, sarvqomat bo'lishi bilan birga qattiqqo'l va zulmkor tarzida tasvirlanganligi, asar so'nggida esa aslida yalmog'iz kampir ekanligi ma'lum bo'lishi inson ichki olamining boshqalarga ayon bo'lishi deb sharhlash mumkin. Har ikkala ijodkor salbiy ma'nodagi rahbar ayollar obrazlarini fantastik to'qima yordamida badiiy dalillashlar bilan mohirona tasvirlaganlar.

Hojiakbar Shayxovning fantast yozuvchi ekanligi haqidagi birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Hojiakbar Shayxov ijodida fantastik asarlarning salmog'i kengligi va bu kabi ijod namunalarini yaratishda adibning o'ziga xos uslubi borligini asarlar tahlilidan ayon bo'ladi.

- Hojiakbar Shayxovning fantastik qissa va hikoyalari badiiy jihatdan puxta asarlar sirasiga kiradi. Ularda qahramonlarning individual xususiyatlarini ko'rsatishda portret chizgilaridan mahorat bilan foydalanilgan.

- Hikoyalarda badiiy detallar fantastik voqelikni aks ettirishda o'z ahamiyatiga egadir.

-Peyzaj tasvirining ham o'z o'rnida qo'llanilishi asar badiiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, fantastik qissa va hikoyalar badiiy jihatdan o'ziga xos tarzda shakllantirilgan.

II BOB. FANTASTIK ASARLARDA OBRAZLILIK

Har bir ijodkor hayot manzaralarini obrazlar vositasida tasvirlash orqali kitobxonga o'z fikr-mulohazalarini yetkazib beradi. Adabiyot va

san'atning asosiy xususiyatlaridan biri ham voqelikni obrazlar asosida aks ettirishdir. "Obraz" atamasi birinchi marta mashhur nemis faylasufi Gegelning estetikaga oid asarlarida ishlatilgan. U o'z estetik qarashlarida san'at haqida fikr yuritarkan, "san'at –obrazlar orqali fikrlash demakdir", deb ta'kidlagan. Prof. L.I.Timofeyevning ta'rificha, "obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va, ayni choqda, konkret manzarasidir"¹

Barchamizga ma'lumki, fantastlar kelajak hayot tasviriga ko'proq nazar tashlaydilar. Ularning diqqat-e'tibori kelajak manzaralarini yaratishga qaratilgandir. Bu haqida gap borganda, albatta, o'zga sayyoraga safarlar uyushtirish, ularning sivilizatsiyasi bilan tanishish haqidagi asarlarga to'xtalib o'tish joiz. Fantastlar oldida turgan muammolardan biri ham o'zga sayyora tasvirini va unda yashovchi aholining obrazini yaratishdir. Ularning portreti sayyoraning tabiiy tuzilishi bilan bog'liq holda aks ettiriladi. O'zga sayyoraliklar obrazi – fantastik obrazlar sirasiga kirib, ularning portret chizgilaridanoq chuqur xayolot mahsuli ekanligini ilg'ab olishimiz qiyin emas. Darhaqiqat, H.Shayxov ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning bu yo'nalishdagi asarlari mohiyatini yoritib berishda fantastik detal va obrazlardan, personaj nutqi, portretdan naqadar mahorat bilan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Uning asarlarida o'zga sayyoraliklar obrazining tasviri ham o'ziga xosdir. Adibning "O'zga sayyorada" nomli ilmiy – fantastik qissasida bu xil obrazning portreti quyidagicha beriladi: "O'zga sayyoralikning tashqi qiyofasi g'aroyib edi: bo'yi o'rta bo'yli yerlik odamnikidan xiyla baland, tuk bosgan

¹T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.T., O'zbekiston. 2002. B.41-42

qizg'ish yuzining tuzilishi odamdan ko'ra ko'proq maymunnikiga o'xshab ketar, qo'llari kalta-kalta, qaddi bukchayganroq, lekin qarashlari dadil va muloyim edi. Hammadan ajablanarlisi, yelkasi osha kuragidan qirg'iyning qanotlarini eslatuvchi ikkita bahaybat qanot chiqqan bo'lib, bu unga qandaydir afsonaviy, hatto biroz dahshatli ko'rinish berardi"¹. Yuqoridagi "tuk bosgan qizg'ish yuz", "qaddi bukchayganroq", "qirg'iyning qanotlarini eslatuvchi ikkita bahaybat qanot" kabi chizgilar ushbu obraz yaratilishida muhim ahamiyatga ega. Bu obrazning o'ziga xos jihatlarini yoritishda personaj nutqidan ham foydalanilgan. "Shaxslar nutqi ularni qurshagan sharoit bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Sharoit ko'pincha personajlar so'zining ahamiyatini oshiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, muayyan vaziyatda personajning gapirishi shart ekani psixologik jihatdan asoslanadi. Demak, yozuvchilar personajlar nutqi orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini, ruhiy dunyolarini, yashash tarzlarini, xarakterlarining mantig'ini, muayyan sharoit uchun mushtarak tomonlarini ochib beradilar. Shunga ko'ra, personajlar nutqi qahramonlarni alohidalashtirish vositasi hisoblanadi"². Mardon ismli qahramonning nutqi qissada quyidagicha beriladi: "Odam gavdasining tuzilishi, rivojlanish tevarak – atrofdagi muhit hamda yashash sharoiti bilan bog'liq. Endi Gemmaga kelsak, bu sayyorada atmosfera bosimi Yerdagiga nisbatan ikki-uch baravar kam. Turgan gapki, bunday sharoit mahalliy odamlarning tashqi ko'rinishiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, ular o'zlarini bizga nisbatan ancha yengil his qiladi. Shu tufayli bo'ylari biznikiga nisbatan uzunroq. Bir zamonlar

¹H. Shayxov. Rene jumbog'i.T., Sharq. 2004. 123-bet

² E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish.T., 2003.119-bet.

uncha- muncha masofaga sakrab-sakrab yurishga odatlanishgan. Keyinroq esa, ularda uchishga intilish tug'ilgan. O'nlab-yuzlab asrlar davomidagi bu intilish odamlarni qanot paydo bo'lishiga olib kelgan. Ko'p qadim zamonlarda hukm surgan tabiiy sharoit tufayli gemmaliklarda qanot paydo bo'lgan, deya taxmin qilishga asos beradi. Ya'ni, ular biror shafqatsiz maxluqning asrlar davomidagi dahshatli ta'qibidan osmonga uchib ketish yo'li bilangina qutula olgan bo'lishlari mumkin"¹. Yuqoridagi nutqdan Gemmaliklarning o'ziga xos jihatlarini, hamda ularning mana shu holatga kelish sabablarini ham bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu sayyorada 2 xil o'zga sayyoraliklar: ya'ni, oliy aqlga ega odamlar va bahaybat gavdali, shavqat bilmas maymunsimon tun mahluqlari –maymaxlar haqida ham bilib olish mumkin. Ular o'rtasidagi munosabatqissada quyidagicha tasvirlanadi: ” ... asrlar bo'yi davom etib kelayotgan murosasiz kurash nihoyatda avj olgan va sezilarli darajada maymaxlarning qo'li baland kela boshlagan”². Qissaning tuguni hisoblangan bu tasvirdan so'ng voqealar rivoji boshlanadi: yerliklarning Gemmaliklarga yordam berish uchun safar uyushtirganliklari tasvirlanadi. O'zga sayyoraliklar va yerliklar qanday gaplashishgan degan savol tug'lishi tabiiy. Yerliklar gemmaliklarga ayollar sochini jingalak qiluvchi mashinaga o'xshagan “qalpoq” yasab berishgan, u qanotli odamlarga fikr uzatish vositasi va ayni paytda tarjima apparati sifatida xizmat qilgan. Mana shu kabi unsurlar fantastik asar uchun zarur bo'lgan voqelikka xizmat qilgan.

¹H.Shayxov. Rene jumbog'i.T., Sharq. 2004. 29-bet.

²O'sha manba.48-bet.

Adibning fantastik hikoyalaridan biri “ Noma'lum odamlar” deya nomlangan. Hikoya peyzaj tasviri bilan boshlangan: “Yo'lga chiqishimizga bir kun qolganda, tog'da qattiq jala quydi. Hammamiz palatkalarga kirib biqinib oldik.Tashqarida shamolning xuddi ochiqqan bo'riday na'ra tortishi, daraxtlarning qarsillab sinishi dilga vahima solardi. Yomg'ir palatkalarimiz tomiga to'xtovsiz urib turar, go'yo kimdir tepadan turib allanima bilan tinimsiz savalayotganga o'xshardi”¹.Bu vahimali tasvirlar orqali go'yo hikoya qahramonlarining ertangi kuni xosiyatsiz bo'lishiga ishora qilgandek bo'ladi.Demak, fantastik usuldagi asarlarda ramziy-majoziy tasvir unsurlaridan ham unumli foydalaniladi. Tongga yaqin o'n boladan iborat yosh sayyohlar guruhi yo'lga tushishadi va yo'lda Ko'ksoy ustidagi osma ko'prikdan o'tishlari kerak bo'ladi. Ko'prik hikoyada quyidagicha tasvirlanadi: “Osma ko'prik vahimali edi. U azbaroyi eskirib ketganidan hilvirab turar, yuz metrcha pastda, jarlikda esa, ismi-jismiga monand ko'm-ko'k suvli Ko'ksoy shovillab oqardi”².Ko'prikdan o'tish navbati Rustamga kelganda, u ikkiga uzilib ketadi.Muharram bilan O'ktam arqon uloqtirib qancha urinishmasin chiqara olishmaydi.Shu payt “qora choponli odam” ularga yordam berib, Rustamni qirg'oq yoqasiga chiqarib qo'yadi. Keyin “qora choponli odam” ularni uyi tomon boshlaydi va ichkariga kirishga undaydi. Bu o'rinda fantastik asarda personaj nutqining o'rni talab darajasida deyish mumkin. Uning nutqi: “Aytib qo'yay, dedi kishini qandaydir tashvishga soladigan ohangda, - yerto'laga tushush

¹H. Shayxov. Rene jumbog'i.T., Sharq. 2004. 5-bet.

²O'sha manba. 5-bet

mumkunmas! Uqdunglarmu?“¹. U o'zbekchani buzib allaqanday notanish shevada gapirishi fikrimiz isbotidir. Hikoya qahramonlari sirli yerto'laga qiziqib qoladilar. Bu g'alati “mezbonning” keyingi nutqi sayyohlarda qo'rquv hissini uyg'otadi: “Endu numa qulduk? Axur, u soydan sakray olmaydi-ku! Qo'nayotgan mahalumuzda bur oyog'u mayub bo'lgan...”². Yuqoridagi nutqdagi “qo'nayotgan mahalumuzda” jumlasini orqali ularning o'zga sayyoradan uchib kelganligiga ishora seziladi. Uning “soydan sakray olmasligidan qayg'urishi”, albatta, o'zga sayyoraliklar uchun tabiiy hol bo'lsa, yerliklar uchun bu g'ayrioddiy hodisa sanaladi. Bu fikrimizni uning Rustam bilan suhbatini yanada dalillaydi: “Sizlar o'zi qayerdan kelgansizlar?”- bu boyadan beri qo'rqib-pisib o'tirgan Rustam. Qora choponli odam qo'li bilan to'ni ko'rsatdi: “Buz huv yuqoridan, tog'dan tushganmuz! Antano ham o'sha yerdan... U hozur kelushu kerak. Buroq ko'pruk ... soy. Men o'sha yerga ketdum! – u shunday dedi-da, shaxdam odimlab tashqariga yo'naldi”³. Hikoyada o'zga sayyoralik obrazini yaratishda jajji motor badiiy detal vazifasini bajaradi. Uning topilishi quyidagicha: “Qo'limga saksovul bo'lagini olib, somonni kovlashtirib ko'rishga qaror qildim. Engashdim –u, qotib qoldim: somon orasidan allanimaning g'ir-g'ir tovushi eshitiladi, xuddi allaqanday ko'zga ko'rinmas jajji motor bir maromda tovush chiqarib to'xtovsiz aylanayotganday... Mana, saksovul parchasi birdan qandaydir qattiq narsaga borib taqaldi. Somonni ikki chekkaga surib qarasam, chamadonga o'xshagan allaqanday qop-qora

¹ H. Shayxov. Rene jumbog'i.T., Sharq. 2004. 8-bet.

² O'sha manba.9-bet.

³ O'sha manba.11-bet.

bir apparat! Uzluksiz g'irillab turibdi. Qandaydir notanish o'lchov asboblari. "Chamadonning" o'rtasida katta qora tugma. Chekkalarida ham bir qancha tugmalar, biroq ular o'rtadagiga nisbatan kichikroq o'lchov asboblari va tugmalarning tagida esa turli shakllarda jamlangan g'alati kalta-kalta chiziqlar"¹. Rustam "chamadon" o'rtasidagi katta tugmani bosib yuboradi, bu bilan apparatning g'ir-g'ir ovozi ham o'chadi, tashqaridagi qora choponli odam ham o'q tekkanday yiqilib tushadi: "Voajab, qora choponli odam uzala tushib yotarkan, boshi bir yuz sakson gradusga buralgan, mutlaqo jonsiz edi! Men avval, shubhasiz, uni birov chetdan turib otgan, deb o'yladim"².

Darhaqiqat, hikoya qahramoni O'ktam shunday deb o'ylagandi, biroq buning boshqa sababi bor edi. Birozdan so'ng unga o'xshagan qora apparat ko'targan yana bir kishi soydan qushdek uchib o'tib kelishi bilan "o'lik" ham tirilib ketadi.

Asardagi odamlarning o'zga sayyoraliklar ekanligi hikoyaning oxiriga qadar oshkor etilmaydi. Chamadon bilan bog'liq voqeadan so'ng bu sir ochiladi.

Adibning "Mutamax" nomli hikoyasida ham o'zga sayyoraliklar obrazini uchratamiz. Unda Zuhal yulduzida istiqomat qiluvchi fazogirlar va ular doimo kemalarida olib yuradigan mahluq obrazlari bunga misol bo'la oladi. Bu mahluq portreti hikoyada quyidagicha beriladi: " ... bo'lmaning temir to'shamasida xuddi poxol tiqilgan qopday cho'zilib yotarkan, u haftalar va oylar mobaynida na ovqat, na suv talab qilar, ahyon – ahyonda kekxa qayrag'och daraxti po'stlog'iday burishib ketgan

¹ H. Shayxov. Rene jumbog'i.T., Sharq. 2004. 12-bet.

² O'sha manba. 13-bet

shilimshiq tanasidan allaqanday ko'kimtir suyuqlik chiqarib, keyin yana o'ziga singdirib olar edi"¹.“ San'atkor yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini chizish orqali ham uning ruhiyatiga kirishga intiladi. Portret orqali qahramonni ta'rif – tavsif qilish san'ati badiiy ijodda muhim rol o'ynaydi"². Shunday ekan, yuqoridagi portret chizgilaridan o'zga sayyoralik, g'aroyib va dahshatli mahluq ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Hikoyaning keyingi voqealar rivojida buning isbotini ko'rishimiz mumkin.

Yana boshqa o'zga sayyoralik, ya'ni kema darg'asining portreti esa quyidagicha: “bo'yi ikki gazdan ziyod, qora tUSDagi fazoviy jomakor kiygan, keng peshonasida birgina katta ko'zi charaqlab turgan miqti fazogir"³. Bunda “bo'yining ikki gazdan ziyodligi”, “qora tUSDagi fazoviy jomakor kiyganligi”, “peshonasidagi birgina ko'z” kabi elementlar o'zga sayyoralik obrazini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zga sayyoraliklar uchib kelgan “O” harfiga o'xshash eshikli”, “o'ziyurar zinali” kema, xufiya maqsad bilan tashrif buyurilgan deya taxmin qilinib o'qqa tutilganda “sirtining kumush rangi o'zgarib, shishaday shaffof tus olib ko'zdan g'oyib bo'lganligi” kabi u bilan bog'liq voqealar hikoyadagi fantastik voqelikni yoritib berishda badiiy detal vazifasini o'tagan. O'zga sayyoraliklar Yerliklarning ularga bo'lgan munosabatidan norozi bo'lib, ularning nutqida quyidagilarni uchratishimiz mumkin: “Yerlik mavjudotlarga sira tushunib bo'lmaydi, - dedi kema darg'asi fig'oni chiqib. – Ularda tajovuzkorlik mayli

¹ www.ziyounet. H. Shayxov. 2012.1-5 betlar.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.T., O'zbekiston. 2002. 178-bet.

³ www.ziyounet. H. Shayxov. 2012.1-5 betlar.

shunaqangi rivojlanganki, har qanday yovuzlik o'shanga yarasha yovuzlikni keltirishi haqida o'ylab ham o'tishmaydi"¹.

O'zga sayyoraliklar yerliklar bilan muloqotga kirishishga harakat ham qilmaydilar. Fazogir nutqidan buning sabablarini bilib olishimiz mumkin: "Biz ular bilan muloqot ham o'rnatolmaymiz: tanalarimizdagi aksilmodda ular uchun o'ta halokatli. Hatto ovozimiz, fikrimiz, nigohimiz ham ularga katta xavf tug'dirishi mumkin"². Bu nutqdan o'zga sayyoraliklar yerliklarga hech qanday ziyon yetkazishni, xavf tug'dirishni xohlamasliklarini bilishimiz mumkin.

Yerliklar ularni o'qqa tutadilar, biroq natija bo'lmagach, kemaga raketalar yordamida hujum qiladilar, keyin hamma yoqni gumburlagan ovozlari u ko'm-ko'k tutun qoplaydi. Kema parchalanib, tepasidan bir necha nozik nur oqimi yuqoriga – koinot qo'riga otiladi. Bu nurdan fazogirlar ruhlarining kapsulada Zuhalgacha jo'natilganligini bilishimiz mumkin. Tutun tarqagach, kema o'rnida yuqorida aytib o'tilgan mahluq paydo bo'ladi. Shu o'rinda yana uning portreti beriladi: "Mahluqning haybati ertaklardagi ajdaholarday ulkan bo'lib, ko'rinishi juda g'alati: o'nlab "boshlari" va panjasimon "qo'l"lari uzluksiz ko'tarilib - tushib, buralib - eshilib turar edi. Hademay, uning tanasi qurib qoldi-da, o'zi dum-dumaloq sharsimon shaklga kirdi va joyidan ko'tarilganicha, o'zini o'rab turgan askarlar sari shiddat bilan uchib ketdi"³. Qissaning keyingi voqealarida uning jamiki biologik tuzilishga ega jonzot, hayvonot va nabototni yemirib, quritib qovjiratib tashlashi oqibatida o'zi ham tobora

¹ www.ziyonet.net. H. Shayxov. 2012.1-5 betlar.

² O'sha manba.3-bet.

³ O'sha manba.3-bet.

kattalashib boradi. Bu mahluq ta'qib qilgan askarlarni qay holga solganligi hikoyada quyidagicha tasvirlanadi: “Sharsimon mutant tirik qolgan va endi butalar oralab shataloq otib qochayotgan so'nggi askarlardan bir nechtasini quvib yetgach, bir qancha ilonsimon uzun “qo'l”larini xuddi o'qday otib, ularni ham o'rab – chirmab o'z “bag'ri”ga oldi. Lahza o'tmay, “shar”ning ostidan sho'rlik askarlarning qorayib ketgan suyaklari va majaqlangan qurollarning temir parchalari ketma – ket to'kilib tushdi”¹. Hikoyaning yana bir qahramoni Asqar G'aniyevich o'z nutqida ushbu qahramonning nomlanishiga alohida to'xtalib o'tadi: “O'ylashimcha, bu – fanga hali mutlaqo noma'lum bo'lgan mavjudot. Balki u chindanam mutamax, ya'ni mutantlashgan mahluqdir?”². Bu asos hikoyaning sarlavhasida ham aks etgan, undagi barcha voqealar shu obraz tufayli sodir bo'ladi. Uning dahshatli qiyofasini portret chizgilaridan va harakat tasvirlaridan bilib olish mumkin. Hikoya butun sayyoraga xavf tug'dirgan mahluqning sahroda halok bo'lishi bilan yakunlanadi.

Adib hikoyalaridan birining “Sirli nur” deb nomlanishini quyidagicha izohlash mumkin: hikoyada Ziyoliklar yaratgan, biroq Davron ismli qahramon nutqida qo'ng'izlar deb atalgan robotlar tomonidan yorug'lik nuri yuboriladi. Ziyoliklar buni boshqa sayyoralarga xabar berish orqali o'z yulduzini saqlab qolish mumkin deb hisoblaydilar. Nur – najot ramzi sifatida ham sarlavha-da, ham hikoya mazmunida shakllantirilgan. Ushbu so'z nafaqat uning nomlanishiga asos, balki butun hikoyaning tuguni vazifasini ham o'tashi aks ettirilgan. Hikoya qahramonlari

¹www.ziyounet. H. Shayxov. 2012.3- betlar.

²O'sha manba.4-bet.

Ulug'bek, Davron Sharipov bilan bir qatorda olti oyoqli qo'ng'izlar, Kibernetik Markazning tovushga taqlid qiluvchi modulyatori, to'rt metrlik Ziyoliklar. Hikoya razvedkachi - fazogir Davron Sharipovning Ziyo yulduziga parvozi va unda o'lik shaharni ko'rishi bilan boshlanadi. Adib Ziyoliklarning portretini quyidagicha chizadi: "Ziyolikning boshi tuxumsimon shaklda edi. Ko'zlari- yerliklarnikiga nisbatan o'zaro ancha uzoqda joylashgan va do'ppayib chiqqan qorachig'lar unga ayni paytda butun chor-atrofni ko'rish imkonini berardi. Keng va yapaloq burni peshonasidan boshlanib, yuzining o'rtasida birgina yoysimon teshik bilan tugagandi; Aftidan, burun ziyoliklar organizmi uchun yana qandaydir boshqa, alohida vazifani ham o'tardi"¹. Yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, adib hikoyadagi shaharni tasvirlashda turli xil geometrik shakllardan foydalangan: "O'zga sayyora shahri! Nihoyatda yuksak qilib qurilgan to'g'ri formadagi silindrlarni ko'ryapman. Asosining diametri taxminan yuz metrga teng bu inshootlar turar joy binolari bo'lsa kerak. Har bir silindr tepasida gorizonta yo'nalishda va turli balandlikka ega spiralsimon "butoqlar" bor. Binolar yigirma – o'ttiztadan alohida- alohida joylashgan. Har bir guruh markazida boshqacha shakldagi – sharsimon, prizmasimon, to'g'ri burchakli qurilmalarni ham ko'ryapman"². Yuqorida tilga olingan geometrik shakllar ramziy xarakterga ega bo'lib, ular orqali o'zga sayyoradagi odamlarning bir-birlariga o'xshamagan jihatlari ko'rsatilgan. Hikoyani harakatlantiruvchi kuchga ega bo'lgan detali bu – insonning umrini ming yilgacha uzaytirishi mumkin bo'lgan preparat – aksilgendir. Uning

¹www. ziyouz.com. Hojiakbar Shayxov. Sirli nur. Pg.7

²O'sha manba. Pg. 1

kashf qilinishi butun sayyora odamlarining boshiga kulfat keltiradi. Ulardagi ming yillik umr ko'rish xayoli oxir – oqibat butun sayyoraning naslsizligiga olib keladi.

Hojiakbar Shayxov fantastik voqelikni tasvirlashda turli xil g'ayrioddiy detallardan foydalangan bo'lsa-da, uning mazmun – mohiyati hozirgi real hayotimiz bilan bog'liq.

Hikoya so'ngida Ziyolik mo'ysafidlarning vasiyatnomasi berilgan bo'lib, quyidagi jumlar orqali ularning ona sayyoralarini naqadar sevganliklarini bilishimiz mumkin : “... Sizlardan o'tinib so'raymiz: muqaddas sayyoramizni qarovsiz qoldirmang. Ona sayyoramizni seving”¹.

Hikoyada fantastikunsurlar, personaj nutqi, badiiy detallar va kompozitsion vositalar orqali asosiy g'oya aks ettirilganligini kuzatishga harakat qildik. Hikoya har bir kitobxonni kelajak haqida o'ylashga, ming yillab yashashdan ko'ra, mazmunli hayot kechirishga chorlaydi.

Hojiakbar Shayxovning yana bir hikoyasi “Umid sayyorasi” deb nomlangan. Unda o'zga sayyoralik obrazining portreti juda hayratli aks ettirilgan: “Uning silindrsimon yelkasidan tarvaqaylab chiqqan olti “qo'li” o'ziga quvvat to'plarkan, ohista silkindi. Boyqushni eslatuvchi dumaloq yuzidagi ajinlar tarqalib qomatini rostladi. Yupqa peshonasidagi sokin havorang tus turli-tuman yorqin ranglar bilan almashindi. U xuddi tepalikdan pastga jilgan muzday ohista sirg'alib o'rindiqdand tushdi-da,

¹www. ziyouz.com. Hojiakbar Shayxov. Sirli nur. Pg.12

sakkizta oyog'iga tayanib, elektron miya, ya'ni bir tomonining o'rtasiga qoramtir ko'zgu mahkamlangan kvadrat panel sari yurdi"¹. Yuqoridagi asarlar tahlilida o'zga sayyoraliklarning bir-birlaridan keskin farq qiluvchi fikr almashish vositalari borligini ko'rdik. Ushbu hikoyada ham o'ziga xos fikr almashish vositasi bor: "Ko'zgu ostidagi yacheyka, xuddi uyqudan turgan fazogirning peshonasiday, kamalak yanglig' turli ranglarda tovlanib miltillay boshladi. Aftidan, bu miltillash Nuvogapda fikr almashish, ya'ni o'zaro gaplashish vositasi bo'lib xizmat qilardi"². Fazogirlar hayot bor sayyorani izlaydilar. Oltita sayyorada bunday alomat topilmaydi va yettinchi sayyorada hayot borligini taxmin qiladilar: "Ko'zgu yorishdi. Lahza o'tmay unda ayrim qit'alar osmoni uzra oppoq bulutlar suzib yurgan zangori sayyora ko'rindi. Sayyorani yorqin oqish rang o'rab olgan – bu uning quyuq atmosferaga ega ekanligidan dalolat berardi"³. Bu sayyoraning aniqlanishi va uning nomlanishi hikoyaning sarlavhasida ham aks etgan. Buni hikoyada fazogir nutqi orqali bilib olishimiz mumkin: "Chiroyli sayyora ekan. Men uni xalqimiz umidining ramzi sifatida Umid deb atayman"⁴. Asarda Nuvogap sayyorasi tilga olinadi, uning ayanchli taqdiri esa fazogirlarni boshqa sayyorani izlashga undaydi: "Nuvogap Dega yulduzi atrofida aylanuvchi yetti sayyoradan biri bo'lib, o'z evolyutsion taraqqiyot jarayonida misli ko'rilmagan inqirozga duch kelgan edi. Dastavval, sayyorada istiqomat qiluvchi aholining ko'pchilik qismi ayni bir paytning o'zida g'alati – uncha kuchli bo'lmagan bosh og'rig'i, qayt

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. "So'nggi ajdarning halokati". Toshkent. 1985. Pg 3.

² O'sha manba. Pg3.

³ O'sha manba. Pg4.

⁴ O'sha manba. Pg4.

qilish, hadeb uyqu bosaverishga o'xshagan yengil kasallikka chalindi. Vaqt o'tishi bilan bosh og'rig'i kuchayib, asablarni qaqshatadigan darajaga yetdi, ko'rish qobiliyati susayib, suyaklar zirqiraydigan bo'ldi. Ajablanarlisi shunda ediki, kasalga chalinganlarning hammasi shu paytgacha mutlaqo sog'lom nuvogapliklar edi"¹. Shifokorlar kasallikni aniqlashga kirishdilar va bu nur kasalligi ekanligi aniqlandi. Nuvogap sayyorasi qalinligi bir necha millimeter bo'lgan toza fitor gazi bilan o'ralganligi ularni Deganing ultrabinafsha nurlaridan himoya qilardi. Nuvogapliklarda irqiy farq yo'q bo'lib, barcha aholi bir tilda – nur vositasida gaplashishardi. Yuqorida fazogir portretidan ma'lum bo'ldiki, ularning qo'llari yerliklardan bir necha marta ko'pdir. Buning sababi hikoyada quyidagicha izohlanadi: “Nuvogapning oddiy xalqi azaldan mehnatkash, u asrlar davomida ter to'kib, tog'u toshlar va sahrolarni go'zal turarjoylarga aylantirgan, tabiat ham uning asriy zahmatli mehnatini taqdirlaganday har bir nuvogaplikka to'rttadan oltitagacha qo'l ato qilgandi”². Aholi o'rtasida bir-birini ko'rolmaslik, g'ayirlik, badnafslilik avj olgan edi. Bundan tashqari, hikoyada fantastik buyumlarning qo'llanilishi ishonarli tasvirlangan: “Havoda uchuvchi entokarlar, havo yostiqlariga o'xshagan moslamalar yordamida sudralib yuruvchi tomchisimon, sumalaksimon va boshqa turli-tuman shakldagi transport vositalari havoni zaharlar, harbiy maqsadlarda ishlatiluvchi dahshatli yarog'lar ishlab chiqaradigan minglab korxonalar ustidan kecha-kunduz osmonga achchiq tutun o'rlar, yuzlab tajribaxonalarda yangidan-yangi urush vositalarini yaratish ustida

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. “So'nggi ajdarning halokati”. Toshkent. 1985. Pg 6.

² O'sha manba. Pg 8.

uzluksiz ish olib borilardi”¹. Demak, sayyora aholisini fikr-u xayoli urush-janglarda g’olib bo’lishga qaratilgandir, biroq uning sayyora tabiatiga naqadar salbiy ta’sir qilayotganligi haqida o’ylab ham ko’rishmaydi. Bir vaqtning o’zida uchta jamoada aksilgamma musbat-giperon zarrachasi kashf etiladi, lekin uni ham o’z dushmanlariga qarshi ishga soladilar. U tabiatdagi jami moddalarning molekulalari bilan tarmoqli reaksiyaviy bog’lamlar hosil qilish xossasiga egaligi sababli ham sayyora stratosferasida turli moddalarning zichligi ortib, toza ftor bilan reaksiyaga kirishaveradilar. Oqibatda tabiiy muvozanat izdan chiqadi. Ayni shu voqea hikoyaning tuguni vazifasini o’tasa, zarracha esa badiiy detal hisoblanadi “Badiiy detal mayda qismlardan biri, – deb yozadi professor U.Normatov, – Biroq asardagi har qanday qismchalar detal bo’lavermaydi. Detalni tafsilotdan farq qilmoq kerak. Tafsilotdan farqli o’laroq, detal qisqa va ixcham bo’ladi. U tasvir obyektini sintezlashtirib ko’rsatish, u haqda kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega”². Darhaqiqat, ushbu kichkinagina detal katta fojining sababchisiga aylanadi. Yozuvchi kitobxon e’tiborini ayni shu narsaga qaratmoqchi bo’lgan. Umid sayyorasining ultrabinafsha nurlardan himoya qalqoni ozondan tashkil topganligini aniqlaydilar, biroq bu yerda ham ahvol ular o’ylagandek bo’lib chiqmaydi: “...hozir fazogirlar sayyorani o’rab olgan ozon zirhi, xuddi bir vaqtlar Nuvogapda bo’lgani kabi, yupqalashayotganini aniq ko’rdilar. Himoya qobig’iga harbiy urushlar, yadro va boshqa qurollarning sinovlari, chiqindi gazlar

¹ O’sha manba. Pg 8.

² Hikoyada detal va tafsilot. “O’zbek adabiyoti masalalari” to’plami. O’zdatnashr. — T., 1962, 446-bet.

va atmosferaning sanoat chiqitlari bilan ifloslanayotgani tufayli jiddiy putur yetayotganidan degaliklar bexabar edilar”¹. Bu xavfdan ularni ogoh qilmoqchi bo’ladilar, lekin bu hech narsani o’zgartirilmayligini tushunib yetadilar. Hikoyadagi personaj nutqi buni yanada oydinlashtiradi: “Biz ularga tahdid solayotgan xavfning mohiyatini uqdirib berdik ham deylik, lekin bizga quloq solishlariga, bu xabarimiz ayrim guruhlar tomonidan bizga nisbatan nafrat uyg’otmasligiga qanday kafolat bor? Oxiri bizni sayyora tinchini buzganlikda ayblab, umuman yo’q qilmasliklariga kim kafil bo’la oladi?”². “Personaj nutqini individuallashtirish zarurati badiiy asar tilidagi differentsiyalanganlikni yanada orttiradi. Chunki asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter xususiyatlariga, dunyoqarashi, muhiti, ma’naviy qiyofasi, madaniy-ma’rifiy darajasi kabi jihatlarga muvofiq bo’lishi lozim. Chunki, epik va dramatik asarlarda qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi”³. Darhaqiqat, yuqoridagi nutqdan shu narsa ma’lum bo’ladiki, o’z sayyorasining fojiasini boshdan kechirayotgan har qanday inson, u o’zga sayyoralik bo’lsa-da, Umid sayyorasining xavf ostida turganini ko’ra bila turib indamay keta olmasligi yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hikoyada yozuvchi ekologik muammoni fantastik elementlardan foydalangan holda tasvirlagan. Umid sayyorasi deya tilga olingan sayyora Yer sayyorasiga ishora

¹www.ziyouz.com kutubxonasi. “So’nggi ajdarning halokati”. Toshkent. 1985. Pg 11.

²www.ziyouz.com kutubxonasi. “So’nggi ajdarning halokati”. Toshkent. 1985. Pg 12.

³Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish”. T., 2004-yil. 121-bet.

qilinganini sezish qiyin emas. Ushbu fantastik hikoya boshqa hikoyalardan ifoda uslubi, obrazlari, detallari va boshqa ko'plab jihatlari bilan farq qilsa-da, har bir kitobxonni sayyoramizning kelajagi haqida o'yga soladi.

Hojiakbar Shayxovning fantastik asarlaridagi obrazlar, ayniqsa, o'zga sayyoraliklar obrazlari o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Ularni yaratishda portret chizgilaridan, tabiat tasvirlaridan va badiiy detallardan unumli foydalanilgan. Fantastik tasvir unsurlari o'rinli va ishonarli qo'llanilgan. O'zga sayyoraliklar obrazlari individualligi, asosan, milliylik unsurlari bilan uyg'un holda berilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, "qora chopon" detali bunda misol bo'la oladi. Yozuvchi tasvirlarda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yishiga qaramay, o'zga sayyoraliklar tasviri H.Shayxov fantastik olami boy ekanligini dalolatlaydi. Adib ijodida yuqoridagi kabi teran mazmunga ega ko'plab asarlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish, ushbu asarlarning o'zbek adabiyotidagi o'rnini aniqlash, badiiy xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Biz ana shu masalani o'rganishni maqsad qildik va izlanishlarni davom ettirish niyatidamiz. Zero, bu ijod namunalari milliy adabiyotimiz shakllanishida ahamiyatlidir.

O'zbek ilmiy-badiiy fantastikasining asoschilaridan bo'lgan Hojiakbar Shayxov o'zining o'ttizdan ziyod ilmiy-fantastik hikoyalar, qissalar va romanlari bilan adabiyotimiz nasrida o'chmas iz qoldirdi. Uning ijod namunalari adabiyotimizning o'ziga xos yangi yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda.

Yozuvchi har bir asarni o'ziga xos sarlavha ostida boshlaydi. Ba'zi sarlavhalar undagi fantastik obrazlar nomi bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilari o'ta jumboqli bo'lib, kitobxonda sarlavhasini eshitgandanoq qiziqish uyg'otadi. Masalan, "Mutamax" nomli hikoya undagi fantastik obraz bo'lgan Mutamax nomi sarlavhada aks etgan. "Pushtirang parvoz", "Olovdan chiqqan odam", "Jodugarning eri" asarlarining nomlanishi uning fantastik shaklda ekanligini namoyon qiladi.

Hojiakbar Shayxov ijodini o'rganar ekanmiz, uning asarlari orasida o'xshash muammolarni ko'tarib chiqqan asarlarni ham uchratamiz. "Mutamax" hikoyasida Orol muammosi fantastikaga yo'g'rilgan holda tasvirlansa, "Umid sayyorasi" hikoyasida Yerimizning ozon qatlamining yemirilishi sabablarini boshqa sayyoraning fojiaiy taqdiri misolida tushuntirishga va tabiatni asrashga chaqiradi. Har ikkala asar zaminida ekologik muammolarni bartaraf etishga undov yotadi deyishimiz mumkin.

Adib ijodiga oid bir necha fantastik hikoyalarni bilamiz, biroq ular orasida bir hikoya ajralib turadi. Bu Hojiakbar Shayxovning "Pushtirang parvoz" nomli hikoyasidir. Hikoyadagi eng g'ayrioddiy voqea – keksa professorning miyasini itga ko'chirilib o'tkazilishidir. Buni hikoya qahramonining nutqida bilib olamiz: "Men esam, oshini oshab, yoshini yashagan keksa professor, buyragim bedavo kasalga yo'liqqach, o'zimni fan taraqqiyoti yo'lida qurbon qilishga qaror qildim. Men o'z miyamni, undagi barcha xotira molekulalarini fanga tortiq etdim. Dastlab bu qaltis ishni miyamni biror yoshga tavsiya qilish yo'li bilan amalga oshirmoqchi bo'ldim. Lekin, afsus, bunday yoshlar topilmagach, uni

sevikli tozi itim – Qorako’zga ko’chirib o’tkazishni rejalashtirdim”¹. Bu voqealar tasviri chuqur xayolot mahsuli ekanligini ko’rsatadi. Avvaliga shogirdi bu taklifni rad etadi, keyin esa ustozining gaplaridan so’ng bunga rozi bo’ladi: “... mening miyamni itning miyasiga ko’chirib o’tkangsang, mening tanam yoqolgani bilan, sen o’z maslahatgo’ying, ustozingdan ayrilmagan bo’lasan. Agar o’sha mening miyam o’tkazilgan “aqlli” it bilan fikr almashish metodikasini o’zlashtirib olsang, biz sen bilan to keksayguningcha ilmiy va ijodiy hamkorlikni bimalol davom ettiraveramiz”². Yozuvchi personaj nutqi orqali qahramonning ichki olamini, uning fidokorligini, insoniylik fazilatlarini ko’rsatishda to’g’ri foydalana olgan. Yuqoridagi nutqdan yana bir narsa ma’lum bo’ladiki, professor jisman yo’q bo’lsa-da, aqlan insonlarga foyda yetkazishni chin dildan istaydi va shogirdini tajriba qilib ko’rishga undaydi. Operatsiya muvaffaqiyatli o’tadi. Oradan yetti kun o’tgach atrofidagi narsalarni bir-biridan ajrata boshlaydi. Hikoyadagi: “... butun tanamni qo’ng’ir tusli jun bosib ketganini ko’rib, hushim boshimdan uchayozdi. O’shandagi ahvolimni bir ko’rsangiz edi. Gavdamning bo’ydor tozi it qiyofasidaligini sezgach, vujudim qaltiray boshladi”³. Bu holga tushgan har qanday inson ham dovdirab qolishi aniq. Adib kitobxonni o’zini it tanasidagi qahramonning ichki kechinmalarni tuyishiga yordam berish bilan birga, ana o’shanday insonning holatini juda ishonarli tarzda tasvirlagan.

¹www.ziyouz.com Hojiakbar Shayxov. “Sirli nur”.19-bet.

²O’sha manba.19-bet.

³www.ziyouz.com Hojiakbar Shayxov. “Sirli nur”.19-bet.

Barchamizga ma'lumki, fantastik asarlarda real hayotimizda sodir bo'lmagan, faqat xayollarimiz orqaligini tasavvur qila oladigan voqealar aks ettiriladi. Biroq har qanday xayolat mahsulini ham fantastika deya olmaymiz. Undagi obrazlar va ular yuzaga keltirayotgan voqealar bir-biriga bog'liq holda tasvirlansa, hamda kitobxonni ishontira olsa, unga estetik zavq bag'ishlay olsagina u haqiqiy badiiy asar darajasiga yetadi. Hojiakbar Shayxov hikoyadagi it bilan uning shogirdi o'rtasidagi muloqotni fantastik asar bo'lganligi uchun og'zaki muloqot shaklida tasvirlashi ham mumkin edi, lekin it bilan insonning bunday shaklda gaplashishini haqiqatdan ancha yiroq deb bilgan. Adib ishonarli tasvirlash maqsadida ularni bunday oddiy usulda gaplashtirmaydi. Qorako'z faqatgina ko'zlari yordamida gaplashadi.

“Tugun – badiiy asar syujetida konflikt va harakatning paydo bo'lishi, boshlanishiga sabab bo'ladigan voqea. Tugun harakatni belgilaydi, voqealar rivojiga turtki bo'ladi, unga aniq yo'nalish beradi. Ko'pgina asarlarda asosiy voqea tugundan so'ng yuz beradi. Tugun kitobxonning asar mavzuini to'g'ri tushunishga yordam beradi, o'quvchini voqealar ichiga yetaklaydi, qahramonlar taqdiriga qiziqtiradi”¹. Quyidagi voqeani hikoyaning tuguni deyishimiz mumkin: „Kema turgan angarga kirgan ikki mexanik negadir bo'g'ilib o'libdi. Murdalarni robotlar olib chiqishibdi. Umuman, o'sha angarga yaqinlashgan odamlar qandaydir tahlkaga tushib, o'sha zahoti orqaga qochayotgan emishlar... “². Bu “Olmos” kosmik kemasi bo'lib, Urandan 10-yildan so'ng qaytgan. Ana shu kema bilan bog'liq bo'lgan bu kabi

¹ T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari”. T., 2002-yil. 118-bet

² www.ziyouz.com Hojiakbar Shayxov. “Sirli nur”. 22-bet.

ayanchli holat barchani qiziqtiradi. O'limning sababini aniqlashga ko'pchilik urinib ko'radi. Hojiakbar Shayxov bunday mushkul vazifani Qorako'z obraziga yuklaydi. Adib bejizga itni tanlamagan, chunki ularning hid bilish qobiliyati juda ham kuchli. Shu sababli ham u kemadan kelayotgan o'tkir hidning sababini aniqlashga kirishadi. It kemani ko'zdan kechirayotganda tasodifan kemada tariqdek pushti rang dog'ga ko'zi tushadi va sirli hodisaning asosiy kalitini topadi. Bu zarracha haqida hikoyadan bilib olishimiz mumkin: “Mana o'sha dahshatli zarracha Yerdagi ilk evolyutsion faoliyatini boshlagan joy. Sterilidatsiya xizmati xodimlarining o'z vazifalariga bir necha lahzalik sovuqqonliklari tufayli zararsizlantirilmay qolgan o'zga dunyolik bu zarracha hozir qayerlarda izg'ib yuribdi ekan?”¹ Buni esa faqat hid bilish orqaligini aniqlash mumkinligini bilgan professor, yuzidagi niqobni yechib, hayotini xavf ostida qoldirsa-da, masalaning yechimini aniqlashga kirishadi. Unga shogirdlari yordam berishadi. Qorako'z devor rangidagi eshikka shubha bilan araydi va shogirdiga ochiga isho qiladi. Kislarod ballonlari saqlanadigan xona hayratlanarli holga ushgan edi: “Kislorod ballonlarining gaz chiqadigan og'zini na ko'pikligini van a mochalkagaligini ajratib bo'ladigan oddiy shar shaklidagi massalar o'rab-chirmab olgandi. Devor tepasiga qaradim-u, hayratim battar ortdi. Xonag sovuq havo keltiruvchi kondensiyer teshiklari ham shunday massalar, u yerdan chiqayotgan havoni bamisoli so'rayotganday, yopishib olishgandi”². Bu zarracha kislorodni yutib, o'zidan havoga tarkibi noma'lum gaz tarqatar ekan. Shu sababli ham tobora kattalashib

¹ O'sha manba. 26-bet.

² www.ziyouz.com Hojiakbar Shayxov. “Sirli nur”. 22-bet.

boravergan. Ular sterilizatsiya kislotasi yordamida xonani tozlaydilar, butun insoniyatga xavf tug'dirgan muammoni oldini oladilar.

Hojiakbar Shayxov bu fantastik hikoyani o'ziga xos uslubda yaratgan. Fantastik detallardan, personaj nutqi, obrazlardan asar g'oyasini yoritishdi unumli foydalana olgan. “Yozuvchining ijodiy mushohadakorligi, o'ziga xos fikr va fantaziyasi, his va tuyg'ulari uning nimalarni yozganidagina emas, qanday uslub bilan yozganida ham ko'rinadi. Yirik badiiy asarlarda ko'plab har xil xarakterlar tasvirlanadi., turli voqealar ko'z oldimizdan o'tadi. Bularning hammasini ichdan birlashtirib, yaxlit bir asar qilib turgan narsa yagona g'oya, syujet, kompozitsiya, konflikt va hokazolargina emas. G'oya ham, syujet, kompozitsiya va konflikt ham faqat yozuvchining ichki dunyosida bir-biriga payvand bo'lib yaxlitlanadi”¹.

Albatta, adib hikoyalarini kamchiliklardan holi deb bo'lmaydi. Ba'zi o'rinlarda voqealarni tushunarsiz va sodda shaklda bayon qilish ham uchrab turadi. Shunday bo'lishiga qaramay, Hojiakbar Shayxov hozirgi davr fantast yozuvchilari orasida peshqadamlaridan biri bo'lib qoldi. To'g'ri, ba'zida adib ijodida qahramonlarni tasvirlashda, aynan ularning ruhiy holatini yoritib berishdi mavhum holatlarni ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, Hojiakbar Shayxov har bir detalni, fantastik unsurlarni o'z o'rnida qo'llay olgan ijodkordir.

Bitiruv malakaviy ishning “Fantastik asarlarda obrazlilik” bobi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

¹ U. Qosimov, M. Jo'rayev “Ijodni anglash yo'lida”. T., 2015-yil. 162-bet.

- Fantastik asarlarda obrazlar tavsifi o'ziga xos tarzda aks ettirilgan bo'lib, yozuvchi bunda portret chizgilari, tashqi ko'rinishi, ularning nutqi, kechinmalari tavsifidan unumli foydalangan. Ayniqsa, o'zga sayyoraliklar portertini yaratishda ular yashab turgan sayyoraning tabiiy tuzilishidan kelib chiqqan holda tasvirlangan. Ularning ichki olami, dunyoqarashini yoritishda personaj nutqi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

- Asarlar badiiyati yozuvchi mahoratini dalolatlaydi. Bunda yozuvchi fantastic tasvirlar ifodasida badiiy detallarga murojaat qiladi. Uning turli ko'rinishlaridan foydalanadi. Bunga fantastic hikoyalardagi o'zga sayyoraliklar uchib kelgan "O" harfiga o'xshash eshikli", "o'ziyurar zinali" kema, tabiatdagi jami moddalarning molekulari bilan tarmoqli reaksiyaviy bog'lamlar hosil qilish xossasiga ega bo'lgan musbat-giperon zarracha, berishgan, fikr uzatish vositasi va tarjima apparati hisoblangan ayollar sochini jingalak qiluvchi mashinaga o'xshagan "qalpoq", insonning umrini ming yilgacha uzaytirishi mumkin bo'lgan preparat – aksilgen kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

- Ayrim hikoyalarida yozuvchi ba'zan sun'iy va soxta lavhalar va chizgilardan ham foydalanilganligi, bu ijod namunalarining barchasi ham talab dajasida emas degan xulosa bermaydi. Umuman, Hojiakbar Shayxovning bu yo'nalishdagi asarlari uning fantastik adabiyot shakllanishidagi izlanishlari samarasi deyish mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda o'zbek nasrida o'z o'rniga ega bo'lgan fantastik yo'nalishda ijod qilgan, fantast yozuvchi Hojiakbar Shayxov o'zining sermahsul ijodi, asarlari bilan o'zbek nasri ijod xazinasini boyitdi. Yozuvchining fantastik asarlari alohida mavqeda turishi, mavzu jihatidan ham, g'oya jihatidan ham va, albatta, shakl jihatidan ham rang-barangligi, o'ziga xos uslub va mahorati, obrazlarning yangicha talqinda berilishi bilan ajralib turishi ushbu tadqiqotning asosiy mazmunini

tashkil qiladi. Ayniqsa, hozirgi o'zbek nasrida fantastika yo'nalishidagi asarlarning o'ziga xos namunalari mavjudligi, ulardagi obrazlilik, badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi kabi masalalarning o'rganilganligi alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotshunoslik va uning tadrijida ijodkorning badiiy mahorati masalasi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, yozuvchi uslubi va badiiy mahorati masalasiga bag'ishlangan tom ma'nodagi yirik ilmiy tadqiqotlar yaratish bugungi kunimizda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki busiz milliy badiiy-estetik tafakkurni boyitib, yangilab, rivojlantirib bo'lmaydi. Bunda, ayniqsa, hayotni badiiy yorqin tasvirlash, betakror obrazlar yaratish, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi barhayot obrazlar bilan boyitishga muvaffaq bo'lgan yozuvchilar ijodini tadqiq etish beqiyos o'rin tutadi. Shu ma'noda nasrimizdagi o'ziga xos jihatlar qatorida yozuvchining o'ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish keying izlanishla uchun muhim omil bo'lishi ham tadqiqotda nazarda tutildi. Biz yuqoridagi ko'rilgan masalalar yuzasidan quyidagi yakuniy xulosalarimizni chiqaramiz:

- Har qanday yozuvchining ham iste'dodi uning qancha asar yozgani-yu, qancha ijod qilgani bilan emas, balki, badiiy tafakkurga qanday o'zgarishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta'sir o'tkazgani bilan belgilanadi. Hojiakbar Shayxov adabiy jarayon faollaridan biri edi. Uning "Rene jumbog'i" nomli to'plamidagi "Olis sayyorada", "Rene jumbog'i" ilmiy-fantastikqissalari, "Noma'lum odamlar", "Do'stimning kashfiyoti" fantastik hikoyalarda insoniyat uchun dolzarb bo'lgan muammolarning fantastik talqini bilan ajralib turadi.

- Hojiakbar Shayxov ijodi, uning fantastik asarlari, yaratgan obrazlari haqqoniy tasvirlarda berilishi bilan birga kamchilik va xatolarga ham yo'l qo'yilgan o'rinlar ham mavjud. Shunga qaramay, adib asarlarida o'zga sayyoraliklar obrazlariga alohida ahamiyat qaratgan deyishimiz mumkin. Ularni yaratishda hech bir element – portret tasviri bo'ladimi, peyzaj yoki shu obrazni yanada kengroq tasvirlashga ko'maklashuvchi badiiy detallar bo'ladimi har biri mahorat bilan qo'llanilgan. O'zga sayyoraliklar obrazi va ular istiqomat qiladigan sayyora aks etgan asarlarida insoniyat uchun katta xavf solayotgan ekologik muammolarning fantastik talqinda yechimini berishga harakat qilgan. Ko'plab fantast yozuvchilar singari Hojiakbar Shayxov ham kelajak haqida qayg'uradi va insoniyatni ogoh etadi.

- Adib hikoyalarida fantastik tasvirlar esa insonlarni chirkin fikrlardan saqlash, ularning qalbini ezgu o'ylar bilan band etish ushbu tur hikoyalarning mazmun-mohiyatinitashkil etgan. Bunday hikoyalar shunday mohiyat-e'tibori bilan kitobxonlar qalbidan joy olib, o'ziga xos sifatlari orqali alohida ajralib turishi ularning o'ziga xos yutug'i deyish mumkin.

Umuman olganda, hozirgi o'zbek nasrida fantastika yo'nalishining shakllanib, rivojlanib borayotganligi Hojiakbar Shayxov ijodi misolida ravshanroq o'rganildi. Ushbu ijod namunalari kamchiliklardan holi bo'lmasalar ham, lekin bu yo'nalishdagi asarlarning o'ziga xos namunalari bo'lishga arzirli asarlar ekanligiga ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy xulosasini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov .Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat nashriyoti, 2008-yil. 176-bet.
2. Hikoyada detal va tafsilot. “O'zbek adabiyoti masalalari” to'plami. O'zdavnashr. – T., 1962, 446-bet.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 2004-yil. 121-bet.
4. U.Qosimov, M. Jo'rayev .Ijodni anglash yo'lida.T., 2015-yil.162-bet.
5. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.T., O'zbekiston. 2002. B.41-4.
- 6.E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish.T., 2003.119-bet.

7. H. Umirov. Adabiyot nazariyasi. T., Sharq. 2002-yil. 256-bet.
8. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., O'qituvchi, 1980, 408-bet.
9. S. Mamajonov. Uslub jilolari. T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972, 220-bet.
10. Q. Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Yangi asr avlodi. T., 2006-yil. 544-bet.
11. H. Shayxov. Rene jumbog'i. T., Sharq. 2004. 123-bet.
12. E. Usmonov. Marhum kech soat sakkizda keladi. T., Sharq, 2011. 30-bet.
13. Ra'no Ibrohimova. Voqelik va fantastika. T., Muharrir, 2011. 59-bet.
14. N. Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., "O'qituvchi" nashriyoti. 1979, 366-bet.
15. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi . 9-jild. 214-bet.
16. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyev. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., 2013. 398-bet.
17. S. Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. T., Yangi asr avlodi, 2005. 418-bet.
18. A. Rasulov Ardoqli adib. T., Yangi asr avlodi, 2005. 418-bet.
19. Ozod Sharafiddinov. Sardaftar sahifalari. T., Yozuvchi, 1999. 204-bet.
20. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). Hojiakbar Shayxov. Sirli nur. Pg.12.
21. www. ziyouz.com. H. Shayxov. Jodugarning eri. 78-bet.
22. www. e-adabiyot. Uz. Zebiniso Saparova "Fantastika". Pg.1
23. www. ziyonet. uz. Ra'no Ibrohimova Filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy asarlarida ilmiy fantastik elementlar. Pg1.
24. www. ziyouz.com. kutubxonasi. So'nggi ajdarning halokati. Toshkent. 1985. Pg 11.

25. www.ziyo.uz. Olovdan chiqqan odam. Pg 1.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Hojiakbar Shayxov – fantast yozuvchi.....	6
II BOB. Fantastik asarlarda obrazlilik.....	29
XULOSA.....	52

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	55
---	-----------